


B.K. XAYRIDINOV

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KREATIVLIK





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

B.K. XAYRIDINOV

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA
KREATIVLIK**

O‘quv qo‘llanma

Toshkent
«ZEBO PRINT»
2025

UO‘K 37.015.31

KBK 74.05

X-39

**B.K. XAYRIDINOV. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA
KREATIVLIK. O‘quv qo‘llanma. – T.: “ZEBO PRINT”, 2025. 114 b.**

Ushbu o‘quv qo‘llanmada ta‘limning asosiy vazifalaridan biri, ya‘ni talabalarda jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalar va zamonga mos fikrlashni shakllantirishga oid mavzular yoritilgan. Bu o‘quv qo‘llanma dars matni yoki mustaqil o‘quv qo‘llanma sifatida ishlatilishi mumkin.

Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir, bu ko‘nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o‘zgarayotgan XXI asr ko‘nikmalariga ega kadrlarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir, hatto mavjud bo‘lmagan sohalarida ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O‘quvchida kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Kreativ fikrlash zamonaviy bilim berishga qaratilgan ta‘lim mobaynida ko‘r-ko‘rona yodlash o‘rniga tadqiqot va ixtironi qo‘llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi mumkin, talabalar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o‘zlari ham o‘quvchilarga fikrlashda ko‘proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy ta‘lim tizimida tahsil olayotgan talabalar, professor-o‘qituvchilar hamda shu sohaga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 27 dekabrda 485-buyrug‘i bilan nashrga tavsia etilgan.

ISBN 978-9910-8676-6-8

KIRISH

Soʻnggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning taʼlim tizimida oʻquvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy eʼtibor qaratilmoqda. Taʼlim tizimini boshqarish organlari har yili taʼlim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga eʼtibor qaratadi. Ana shu maqsadda oʻquv dasturlari ishlab chiqiladi, yangi oʻquv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham oʻqituvchilarni kasbiy oʻsishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olgʻa intilishga boʻlgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning oʻquv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq oʻquv yilining oxiriga kelib oliy taʼlim muassasalarida talabalarning fanlarni oʻzlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti.

Koʻplab talabalarning taʼlim olishga nisbatan qiziqishi pasaygan. Buning natijasida oʻqituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni oʻylashmayapti. Taʼlim tizimini boshqaruvchi organlar taʼlim olishga nisbatan xohishistagi boʻlmagan talabalar, bu kabi taʼlim oluvchilarni oʻqitishni istamayotgan oʻqituvchilar faoliyatini oʻzgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansada, ahvol oʻzgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan oʻylab, rejalashtirilib qoʻyilishi talabalar uchun qiziq boʻlmayotgandir, balki taʼlim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, ragʻbat bildirmayotgandir. Oʻquv mashgʻulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi gʻoyalarni oʻylab topishga majbur qilish taʼlim olishga boʻlgan munosabatni oʻzgartirish, ularni yutuqlarga erishishga ragʻbatlantirishda asosiy omil boʻla olar. Oʻquv mashgʻulotlarida yetishmayotgan omil kreativlik sanaladi.

Mazkur masala bugungi kun taʼlim tizimining dolzarb muammolaridan biri ekanligi va bu boʻyicha yangi darslik va

o'quv adabiyotlarini yaratishga mamlakatimiz rahbari ham alohida urg'u berib, quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar: «Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro dasturlarga moslashtirish lozim. Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazzmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur». Ta'lim beruvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o'z navbatida, o'qituvchilarga ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy g'oyalar «inkubatsiya» bo'lishi uchun muayyan vaqt talab etishini anglashga yordam beradi. Mazkur o'quv qo'llanma yuqorida ta'kidlab o'tilgan ta'lim jarayonining dolzarb muammolariga yechim topish yo'lida bir vosita sifatida taqdim etilmoqda. O'ylaymizki, bu qo'llanma ta'lim jarayoni samaradorligi va sifatini oshirishda nafaqat talabalar, balki professor-o'qituvchilar uchun ham birdek asqotadi. Talabalar xatolarni tushuntiradigan kishiga emas, balki yo'lni ko'rsatadigan kishiga ko'proq intilishadi.

1-Mavzu: Kreativ pedagogika fan sifatida.

Reja:

1. “Kreativlik” va “Kreativ pedagogika” tushunchalarining mohiyati.
2. Boshlan'ich ta'limda ijodiy faoliyat asoslari pedagogikasining tarkibiy tuzilmasi va asosiy kategoriyalari.
3. Boshlang'ich ta'limda ijodiy faoliyat asoslari fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Tayanch tushunchalar: kreativlik, pedagogika, “Kreativ pedagogika” fani, fanning maqsadi, fanning vazifalari, fanning ob'ekti, fanning predmeti, fanning tarkibiy tuzilmasi, fanning asosiy kategoriyalari, kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, ilmiy-tadqiqot metodlari.

“Kreativlik” va “Kreativ pedagogika” tushunchalarining mohiyati.

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovastion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi.

“Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-

17 yosh) dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy- iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integrastiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integrastiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining etarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalaridan ko'rish mumkin.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli video lavhani You Tube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o'qituvchilar kreativlik asoslarini o'rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.). O'qituvchilarda pedagogik faoliyatni

kreativ yondashuv ko'nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti, Ta'lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan'anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta'lim departamenti, 2013 y.). Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar hali hanuz shaxs (o'zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayaptilar. Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi.

Bu esa ham talabalar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, o'quv yilining oxirida kelib oliy ta'lim muassasalarida talabalarining fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko'plab talabalarining ta'lim olishga nisbatan qiziqishi yo'qolgan. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmayapti.

Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan talabalar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda.

Buning sababi nimada?

Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi talabalar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab

topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'ulotlarida etishmayotgan omil – kreativlik sanaladi¹. Shaxsda kreatiqlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, “kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxstomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish” demakdir. Ko'plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar (Kim, 2005 y.). “Kreativlik” tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985y.).

Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.). Ko'pgina o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o'qituvchilar ham aslida “kreativlik”

tushunchasi qanday ma'noni anglatishini etarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega.

Xo'sh, o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdir"². Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani echishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri echimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda "kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Kreativlik (lot., ing. "create " – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik

shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o'tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O'quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonni qanotlantirishi lozim.

Nazorat savollari:

1. "Kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. "Kreativ pedagogika"ning maqsadi nimadan iborat va u qanday vazifalarni hal qiladi?
3. "Kreativ pedagogika"ning ob'ekti va predmetini nima tashkil etadi?
4. "Kreativ pedagogika"ning asosiy kategoriyalari qaysilar?
5. "Kreativ pedagogika" qanay fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi?
6. Kreativ shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda qanday ilmiy tadqiqot metodlari qo'llaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barisheva T.A., Jigalov Yu.A. Psixologo-pedagogicheskie osnovi razvitiya kreativnosti – SPb.: SPGUTD, 2006.
2. Bashina T.F., Ilin E.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria

– Virginia, USA: ASCD, 2014.

4. Sirotyuk F.S. Diagnostika odaryonnosti / Ucheb.posobie. – M.: DirektMedia, 2014. – 1229 s.

5. Utyomov V.V., Zinkovkina M.M., Gorev P.M. Pedagogika kreativnosti: prikladnoy kurs nauchnogo tvorchestva / Ucheb. posobie. – Kirov: ANOO “Mejreginalno‘y StITO”, 2013. – 212 s.

2- Mavzu: Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish yo‘llari

Reja:

1. Pedagoglarda kreativlik sifatlarining rivojlantirish yo‘llari
2. O‘qituvchining kreativligini rivojlantirish.
3. Har bir pedagogning o‘zini- o‘zi rivojlantirishi va o‘zini- o‘zi namoyon eta olish qobiliyati

Hozirgi zamon pedagogikasi yuqori malakali pedagogik kadrlarga ehtiyoj sezadi. Ushbu loyihani amalga oshirish quyidagilarni amalga oshiriladi:

1. O‘qituvchilarni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish sistemalarni tadbiiq etish;
2. Pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazishda qo‘yiladiagan talablarni yangilash;
3. Ularning malakasini oshirish;
4. Eng yaxshi o‘qituvchilarning tajribalarni keng ommalashtirish.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiiq etish o‘qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O‘qituvchining kreativligi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqishi va yaxshilash hammaga ma’lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma’nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi, original (o‘ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma’naviy bog‘liqliklarni yaratishdir.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib o‘qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi,

muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Ahloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motevatsion (maqsadiy);
4. Emotsional (his hayajonli).

Kreativ layoqat quyudagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

1. Kreativlik maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo'nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

K.Rodgers "Ijod-o'z o'zini kuchaytirish demakdir" degan asarida ijodiy shaxs uchun eng asosiy savollardan birini beradi: "Meni meni hayot tarzim qoniqtiradimi yoki to'g'ri talqin etadimi. O'qituvchining ushbu savolga javobi uning kasbiy va ijodiy cho'qqilarga intilishi yuqori ijodiy malakali va o'zini ijodiy tomondan to'la namoish etishga intilishi kreativ shaxs bo'lishi".

Shunday qilib kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zini faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy

faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kreativ potentsiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e‘tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;
- ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o‘zini- o‘zi rivojlantirishi va o‘zini- o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta‘minlanadi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma‘lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va

kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

O'qituvchilar darslarda bo'lajak pedagoglarning erkin fikr yuritishlarini ta'minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi. "Kreativlik darslarida bo'lajak pedagoglar birgina "to'g'ri" javobni izlash o'rniga o'zlarini erkin va xotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko'p g'oya va fikrlarni o'rtaga tashlasalar, shuncha ko'p g'oyalari kreativ bo'ladi (Simonton, 1999). O'quvchilar "Aqliy hujum" metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Bo'lajak pedagoglarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va keyinchalik ularni mustaqil "sayohatga" qo'yib yuborish ularda kreativ va hattoki noaniq bo'lsada, turli g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday "Qo'rquv hissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; havotir kreativlikning xizmatkoridir" (Goleman, Kaufman, & Ray, 1992). Bo'lajak pedagoglarni yo'naltirish, o'qituvchiga bog'liq bo'lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o'quvchilari yoki yuqori kurslarning malakali bo'lajak pedagoglari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo'lib, yosh va tajribasiz

bo'lajak pedagoglarni ruhlantirib, bu esa o'z o'rnida kreativlik ko'nikmasining shakllanishiga o'z ta'siri o'tkazadi (Amabile, 1998). O'qituvchilar bo'lajak pedagoglarni manbalar bilan ta'minlash, maslahat berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning progress va muvafaqqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. Shuningdek, yuqori kurs bo'lajak pedagoglari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqтира oladilar ham (m: ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muammolarni echish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)".

Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;

- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;

- masalani hal qilish rejasini tuzish;

- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;

- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;

- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;

- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;

- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala echimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi:

Maqsadli-motivli yondashuv (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi);

Mazmunli yondashuv (o'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi);

Tezkor-faoliyatli yondashuv (o‘zida ma’lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi);

Refleksiv-baholash (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o‘zo‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘zga tashlanadi);

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi.

Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;

- ilmiy -tadqiqot faoliyatini olib borish ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtiradi;

pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;

- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va

ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi

Nazorat savollari:

1. Yuqori malakali pedagogik kadrlar yetishtirish uchun qanday loyiha amalga oshiriladi

2. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish qanday o‘zaro bir-biriga bog‘liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi

3. Refleksiv-baholash nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Inoyatov U.I., Usmonboyeva M., Inog‘omova D. “Pedagogika: 1000ta savolga 1000ta javob” / Metodik qo‘llanma –T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193-b.

2. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi” / Metodik qo‘llanma –T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.-115b.

3. Sayidahmedov N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”.- T.: Oliy pedagogika instituti, 2003.
4. Sultonova G.A. “Pedagogik mahorat”. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
5. Toxtaxodjayeva M.X. “Pedagogika nazariyasi”/ OTM uchun darslik. - T.: “Iqtisod- moliya”, 2010.- 136-140-b.

3-Mavzu: Pedagoglarda kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar

Reja:

1. Kreativlik tushunchasi va uning mohiyati.
2. Pedagogning kreativ sifatlari.
3. Zamonaviy pedagogning kreativ faoliyati.
4. Kreativ pedagogning mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish (fantaziya).

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish,

ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi.

"Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi: iste'dodning kreativligi va shaxsning o'zo'zini aktuallashtirish kreativligi.

Shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko'p sohalarida duch kelishimiz mumkin. A.X. Maslou kreativlikda o'z-o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi – "ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi", "ikkinchisi – ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lim, kamolotga intiluvchanlik". A.X. Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko'radi, ya'ni barcha insonlardagi tug'ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma'lum ijtimoiy to'siqlar natijasida yo'qolib ketadi, deb hisoblaydi. T.A. Barisheva va Yu.A. Jigalovalarpedagogikada kreativlikni tizimli (ko'p bosqichli, ko'p o'lchamli) psixik (ruhiy) ta'lim sifatida talqin

etib, unga faqatgina intellektual potensialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va hokazolarni ham kiritadi [3. 129]. Shuningdek, kreativlikning mezonlari Dj.P. Gilforda, E.P. Torrans tomonidan belgilangan:

– ravonlik: ma’lum bir vaqt oralig’ida ko‘plab fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati;

– o‘ziga xosligi: aniq, taniqli, umume’tirof etilgan, oddiy yoki qat’iy belgilanganidan farq qiluvchi g‘ayrioddiy, nostandart g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

– sezuvchanlik: g‘ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o‘tishga tayyorlik;

– mo‘tadillik: g‘ayritabiiy kontekstda ishlashga tayyor bo‘lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlashga moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko‘rish qobiliyati;

– rivojlanish: paydo bo‘lgan g‘oyalarni batafsil ishlab chiqish, ularni sath va quyi tizimlarga aylantirish qobiliyati;

– to‘xtashga qarshilik: bir xillikka qarshilik ko‘rsatish, ya’ni muammoni yechish jarayonida kelib tushayotgan turli informatsiyalar andozalariga qarshilik ko‘rsatish.

– noaniqlik: stimuldanda mustaqil mantiqiy reaksiyagacha bo‘lgan qobiliyat; “nomlash”ning mavhumligi: shaxsning muammo mohiyatini tushunish qobiliyati, aslida, ahamiyatga ega bo‘lgan nomni tushunish va aksini aks ettirish qobiliyati (“nomlash” jarayoni mufassal shaklni, muammoning mohiyatini ko‘rish qobiliyatini, og‘zaki shaklga aylantirish qobiliyatini aks ettiradi);

– ko‘p vazifalilik: bir vaqtning o‘zida bir nechta loyihalarda ishlash qobiliyati;

– samaradorligi: mahsulotning yaroqliligi, ularning foydasi, mahsulotning maqsadli auditoriyasi tomonidan yangi, noyob, original bo‘lishi haqidagi idrok;

– mamnuniyat: kreativlikning natijasi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shaxsning

ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash; ular uchun yechim topish qobiliyati; bilim olish, malaka va ta'lim berish usullarini yangi holatga o'tkazish imkoniyati; ilgari o'rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin. Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan va an'anaviy mavjud bo'lgan, aslida, to'g'ri deb o'ylangan shablon yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo'nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o'z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechiminining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir. Prognoz, bashorat qila olish esa o'z sohasi rivojidadagi istiqbol o'zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi. Masalan, mehnat unumdorligining ko'tarilishi va pasayishi, konyuktura yoki bozorning o'zgarishi hamda mazkur o'zgarishlarning sohaga bo'lgan ta'siri, narxlarning ko'tarilishi, pasayishi va b. Ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

– ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash;

– ta'lim oluvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, ta'lim oluvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir ta'lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish; o'quv jarayonini ta'lim oluvchi shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va

intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

- ta’lim oluvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish va hokazo.

Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o‘tgan:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innotvasion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta’lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta’lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta’lim – ta’lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini o‘zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan “subyekt-subyekt” munosabatlariga asoslangan o‘qitish metodlari tizimidir. Bunda o‘zaro harakat ta’lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o‘rnatish kabi tamoyillarga tayanadi. Demak, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari vositasida ta’lim oluvchilarda

kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti ta'lim jarayonida erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professor-o'qituvchilar, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi munosabatlari va o'zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishdan iborat.

Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, quyida ayrimlarini keltirib o'tish mumkin:

- kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o'quv jarayonida izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo'nalishlarini kuchaytirish;

- ta'lim oluvchilarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;

- ta'lim oluvchilarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;

- ta'lim oluvchilarning kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo'naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zo'zini bilish, o'z mavqeyiga ega bo'lish, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash layoqatlarini faallashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;

- ta'lim oluvchilarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;

- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;

- keyslar bilan ishlash;

- guruhiy ish shakllari va debatlarini tashkil etish;
- o‘quv loyihalarini tayyorlash;
- portfoliolarni shakllantirish;
- kastinglar uyushtirish;
- to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va hokazo.

Ta’lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlashning quyidagi mezonlari mavjud: kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi; kreativ fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanganligi; kreativ sifatlarning shakllanganligi; amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish; ixtisoslashgan kreativlikning shakllanganligi va boshqalar. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyin mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib, o‘qituvchining kreativligi deb, uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’riflash mumkin. O‘qituvchining kreativligi, bu uning qat’iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g‘oyalarni izlab topish layoqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy).
2. Axloqiy (o‘z-o‘zini boshqarish).
3. Motivatsion (maqsadli).
4. Emotsional (his-hayajonli).

Kreativ layoqat quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Kreativ maqsad.
2. Ijodiy intilish.
3. Kreativ (ustanovka) qurish.
4. Kreativ yo‘nalish.
5. Kreativ ifodali akt.
6. Kreativ o‘z-o‘zini boshqarish.
7. Kreativ faollik.

8. Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zining faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning kreativ kompetentligi uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N. Xomskiy (1965-yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan "kompetensiya" atamasining umumiy ma'nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda (1996-yil) "kompetensiya" tushunchasi "uquv", "kompetentlik", "qobiliyat", "mahorat" singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999-yil) ta'lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuv e'tirof etildi. G.V. Nikitinaning fikricha, kompetentliklar tasnifida bir nechta asoslar mavjud:

- insonning umumiy kompetentligi (matematik, kommunikativ, informatsion, ijtimoiy, axloqiy va h.z.);
- faoliyat turlari bo'yicha kompetentlik (mehnat, o'quv, o'yin, kasbiy va boshqalar);
- faoliyat yo'nalgan obyektlar bo'yicha kompetentlik (inson-inson, inson-texnika, inson-tabiati, inson-badiiy timsol va h.z.);
- ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha kompetentlik (maishiy, fuqaroviy, madaniy va boshqalar);
- ijtimoiy bilimlar tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (matematikada, gumanitar fanlarda);
- ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (transport, aloqa, mudofaa va boshqalar);
- qobiliyatlar bo'yicha kompetentlik (pedagogika, psixologiya, ijtimoiy, ijodiy, texnik va boshqalar).

Zero, yuqorida aytilgan kompetentlik yo'nalishlari shaxs

umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pedagogning kasbiy kompetentligi tasnifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagogning ish sohasi bo'yicha kompetentligi
- uzluksiz ta'lim tizimini o'z ichiga oladi;
- ixtisoslik bo'yicha kompetentligi
- o'qituvchi, tarbiyachi, psixolog, defektolog, kasb ta'limi o'qituvchisi, ishlab chiqarish ustasi;
- pedagogning faoliyati yo'nalgan obyekt bo'yicha kompetentligi
- talabalar, otaonalar, sinf jamoasi, sotsium va boshqalar;
- pedagogning faoliyati turi bo'yicha kompetentligi motivatsion, gnostik, metodologik, metodik, informatsion, kommunikativ, refleksiv, prognostik, konstruktiv, tadqiqot, texnologik, korreksion va boshqalar.

A.V. Xutorskiy o'qituvchining quyidagi kompetensiyalarini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asosida, ya'ni qadriyat va o'zini anglash – o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi, bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiyao'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlarga hurmat; ijtimoiy ko'nimalarga ega bo'lish. Ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olish va talaba yoshlarga tushuntira olish.

3. O'quv va bilish jarayoni – o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi, o'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmalarini tahlil qila olishi.

4. Ma'lumotga ega bo'lish – pedagogik faoliyat va o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

5. Muloqotchanlik – til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

6. Ijtimoiy – foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas’uliyat, jamiyat rivojidadagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

7. O‘z ustida ishlashi – jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘z-turli axborot manbalari, shu jumladan, ta’lim muassasasidan tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga asoslangan bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar: – ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a’zosi rolini bajarish); – mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, mehnat bozorida holatni tahlil etish va undan foydalanish, o‘zining kasbiy imkoniyatlarini, o‘zini o‘zi uyushtirish ko‘nikmalarini baholash va takomillashtirish); – maishiy sohadagi kompetensiyalar (shu jumladan, oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi); – madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, shaxsning ma’naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtdan unumli foydalanish). O‘qituvchi kompetensiyasi – uning nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakasi, dunyoqarashi, e’tiqodi va barcha shaxsiy individual, ijtimoiy-psixologik sifatlarining namoyon bo‘lishidir. Ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri bu – o‘qituvchining o‘z fani bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo‘ladi. Bular: ilmiy bilish; gnoseologik bilish; pedagogik faoliyatni ephillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish; har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy-kreativ yondashish; ta’limiy, tarbiyaviy ta’sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish; o‘zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o‘rganish va ichki psixologik zaxirasidan samarali foydalanish orqali o‘zini muttasil rivojlantirish; jamiyat va insonlarga, tabiatga, borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo‘lish ijobiy pozitiv fikrlashga o‘tish

tajribasidan iborat. Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: – o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi; – yangi axborotlarni o‘zlashtiradi; – davr talablarini chuqur anglaydi; – yangi bilimlarni izlab topadi; – ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi . Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-seminar (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;
- 7) izchillikni ta‘minlovchi (protsessual) malakalar;
- 8) texnik-texnologik malakalar .

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Kreativlik uchun quyidagilar muhim bo‘lib hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko‘p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o‘z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e‘tiborini ta‘lim jarayoniga faol jalb etishni ta‘minlaydi”. Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarining mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P. Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini

yaratadi. Talaba tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonni qanoatlantirishi lozim. E.P. Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi: – muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; – farazni tekshirish va o'zgartirish; – qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; – muammo yechimini topishda bilim va seminar harakatlarning o'zaro qaramaqarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etilib, bitiruv ishi doirasidagi "kreativlik", "kreativ qobiliyat", "pedagogik kreativlik", "interfaol o'qitish", "interfaol o'qitish sharoiti", "talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish" kabi asosiy tushunchalar mohiyati ochib berildi.

Nazorat savollari:

1. "Kreativlik" tushunchasini qanday sharhlash mumkin
2. A.X. Maslou kreativlikni nechta turga bo'ladi
3. Kreativ layoqat o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qanday qismlardan iborat bo'ladi
4. Kreativlik uchun nimalar muhim bo'lib hisoblanadi
5. Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlarini sanab bering

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги "Ўзбекистон Республикасининг яна дариво жлант ириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида" ги ПФ–4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Бубенов А.В. Коммуникационная культура: Философско-методологический анализ Электронный ресурс.: дис. канд. философ., наук. М., 2006.
3. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. –

С. 285.

4. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.

5. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол укитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. / Монография. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2016. – Б. 77.

6. Maslow A. The Farther Reaches of Human Nature NY: Viking, 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books, 1973. Contents.

7. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностноориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

4- Mavzu: Didaktik ta'minotni yaratishda kreativ yondashuv.

Reja:

1. Kreativ yondashuv asosida o'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratish.

2. O'quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashuv va ularni samarali tayyorlash tamoyillari.

3. O'quv mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

Tayanch tushunchalar: o'quv dasturlari, o'quv manbalari, o'quv materiallari, tamoyillar, o'quv materiallarini samarali tayyorlash tamoyillari, didaktik ishlanmalar, didaktik ishlanmalarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar.

1. Kreativ yondashuv asosida o'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratish.

Bir qarashda ta'lim jarayonini kreativ g'oyalar asosida tashkil etish o'quv dasturida belgilangan talablardan chetga chiqishdan tasavvur qoldiradi.

Biroq, kreativlik, ijodiy yondashish o'quv mashg'ulotlarini mavjud DTSga moslashtiradi. Qolaversa, o'qituvchilardan o'qitish jarayoniga nisbatan kreativ, ijodiy yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladigan metod, usul va vositalar mashg'ulotlarni metodik jihatdan samarali, to'g'ri olib borilishini ta'minlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan ta'lim mazmunini shakllantirish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi.

Bosqichlar

Umumiy nazariy bosqich

O'quv bosqichi

O'quv materialini o'zlashtirish bosqichi

13-rasm. Ta'lim mazmunini shakllantirish bosqichlari

O'quv materialini o'zlashtirish bosqichida ta'lim mazmunining o'quv modul (fan) lari bo'yicha yaratilgan DTS, o'quv rejasi va o'quv dasturi kabi meyoriy hujjatlar, shuningdek, o'quv manbalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanma, yo'riqnoma, tavsianoma va kabilar)da aks etishi ta'minlanadi.

Ta'lim mazmuni davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari mazmunida namoyon bo'ladi.

Ta'lim standartlari – umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan meyoriy hujjat. O'quv rejasi - meyoriy hujjat bo'lib, unda har bir o'quv predmetining mazmuni ochib beriladi va o'quv yili davomida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatib beriladi

Ta'lim mazmuni o'quv dasturlarida yanada batafsil yoritiladi. O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmunini, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi meyoriy hujjat

Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyati va samaradorligini belgilovchi mezonlar sanaladi. Pedagoglarda ham kreativlik sifatlarining to'laqonli namoyon bo'lishi o'quv dasturlari bilan ishlashda ham ko'zga tashlanadi.

O'quv dasturlari rasida mualliflik o'quv dasturlari pedagogning kreativlik sifatleri, kasbiy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan ijodiy yondashuvi, ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirish yo'lida tashkil etayotgan kasbiy-ijodiy faoliyati mazmunini o'zida to'laqonli ifoda eta oladigan ta'limiy xarakterdagi dasturdir.

Mualliflik o'quv dasturlari –

1) talabalarning ehtiyoj, qiziqish, xohish-istaklarini inobatga olgan holda o'quv moduli (fani) doirasida muayyan mavzu (masala) ni chuqur o'rganish yoki ma'lum muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan o'quv dasturi;

2) o‘quv dasturlarining bir turi Bu turdagi dasturlarlar ham davlat ta’lim standartlari talablarini hisobga olgan holda o‘quv fani qurilishining o‘zgacha shaklda bo‘lishi, to‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan muallif nuqtai nazarining aks etishi bilan boshqa o‘quv dasturlaridan farqlanadi. Mualliflik o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda pedagog erkin, mustaqil ravisha o‘zining kreativlik layoqatini to‘la namoyon etish imkoniyatiga ega.

Odatda mualliflik o‘quv dasturlaridan talabalarning erkin tanlovi bo‘yicha (majburiy yoki maxsus) kurslar tashkil etishda, to‘garaklar, ilmiy jamiyatlar, “Fan klublari”, texnik va badiiy ijodiyot markazlari faoliyatida samarali qo‘llaniladi. Qolaversa, o‘quv fanining mazmunini shakllantirishda har bir pedagog 15 foiz miqdorda ijodiy yondashgan hola unga o‘zgartirish kiritish imkoniyatiga ega.

Binobarin, o‘quv dasturlarining innovatsion, kreativ xarakter kasb etishi talabalarda ta’lim olishga qiziqishni kuchaytiradi, ularning o‘quv-bilish faoliyatining faollashuvini ta’minlaydi.

Ta’lim mazmuni va o‘quv dasturlari o‘quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari kiradi. O‘quv adabiyotlari orasida darslik alohida o‘rin tutadi.

Darslik – muayyan o‘quv fani bo‘yicha ta’lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy ma’lumotlarni beruvchi manba bo‘lib, u mazmuni va tuzilishiga ko‘ra fan bo‘yicha yaratilgan o‘quv dasturiga mos keladi

O‘quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi tomonidan barcha akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalari (universitet, akademiya)lar uchun tavsiya etiladi. G‘oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo‘lgan darslik ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, talabalarning ehtiyojlarini qondira olishi, qiziqishini oshirishi, bilim, ko‘nikma va malakalarini boyitishi zarur. Darslikda bayon etilayotgan o‘quv axborotlari lo‘nda, tushunarli va vizual bo‘lishi,

talabalarning estetik ehtiyojlariga mos kelishi kerak.

Darslik barqaror, puxta asoslangan tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi lozim. Mohiyatan darslik barqarorligiga ko'ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko'ra asosiy tuzilmaga dahl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi.

Ularga qo'yiladigan talablar turlicha bo'lsa-da, ular orasida umumiy xususiyatga ega talablar ko'p. Yetakchi xorijiy mamlakatlarda muqobil darsliklarning nashr etilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning boisi pedagog va talabalarga ular orasidan o'zlari uchun eng maqbul, amaliy ahamiyatga ega bo'lganlarini tanlab olish imkoniyat yaratishdir. Ta'lim mazmuni o'quv materialini darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, ma'lumotnomalar, matematika, fizika, ximiya bo'yicha masalalar to'plamlari, geografiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va b.da ochib beriladi. O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo'ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish).

O'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratishda ma'lum tamoyillar asosida ish yuritiladi. Ayni vaqtda pedagogika amaliyotida M.Karne tomonidan asoslangan tamoyillarga rioya etilmoqda (14-rasm):

Tamoyillar

- Pedagoglarning malakasini oshirish uchun qo'shimcha mablag'larni shakllantirish
 - Individuallashtirish
 - Pedagoglar faolligini ta'minlash
 - Dasturlarni yaratish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish shaxsiy mas'uliyatni kuchaytirish
 - Ish joylarida pedagoglarning o'quv dasturlarini tayyorlash bo'yicha malakalarini oshirish
 - Pedagoglarning individual va guruhli tayyorgarlik darajasini baholash
 - Dasturdan turli metodlarning o'rin olishiga erishish
- 14-rasm. Ta'lim dasturlarini yaratish tamoyillari

“Kreativlik o‘quv-bilish faolligi sifatida ham tahlil etilishi mumkin. Binobarin, ba’zi o‘quvchilar tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlashni, boshqalar esa aniq ma’lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo‘lishni afzal ko‘radi, uchinchi guruh vakillari esa tabiatan kreativ va tanqidiy fikrlashga moyil bo‘ladi. Shunga asoslangan holda o‘qituvchilar har bir talabanning qiziqishi, qobiliyati, moyilligi, shuningdek, ularning o‘quv-bilish uslubidan kelib chiqqan holda” (Tomlinson, 1999) ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, o‘quv manbalarini shakllantirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ya olishlari kerak.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativligi yana bir holatda – elektron axborot- ta’lim resurslari (EATR)ni yaratishda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

EATR – o‘quv fan (modul)lari bo‘yicha tizimlilik, izchillik, o‘zaro muvofiqlik va yaxlitlik asosida shakllantirilib, o‘quv materiallarini to‘liq yoki qisman qamrab olgan holda kompyuter texnologiyasi yoki Internet axborot tarmog‘ida maxsus (alohida) saytda joylashtirilgan elektron nashrlar majmui EATR bosma o‘quv-metodik majmualar kabi o‘zining tarkib asosiga ega bo‘ladi.

Ushbu tarkibiy asos bir nechta elementlarni qamrab oladi. EATRning tarkibiy asosi quyidagi elementlardan tarkib topadi (15-rasm):

Web texnologiya asosida elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish 15-rasm. EATRning tarkibiy asosini tashkil etuvchi elementlar

Elementlar

O‘quv modulining ishchi o‘quv dasturi .

O‘quv modulini o‘rganishga oid metodik ko‘rsatmalar:

Lug‘aviy ma’lumotlarni beruvchi manbalar:

O‘quv va o‘quv-metodik materiallar:

Elektron atamalar lug‘ati yoki glossariy:

Elektron o‘quv ko‘rsatmali materiallar;

Joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari;
Pedagogik amaliyot hujjatlari;
O‘quv-bibliografik materiallar.

2. O‘quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashuv va ularni samarali tayyorlash mezonlari.

Ta’lim jarayonidagi kreativlik talabalarda o‘qishga qiziqishlarini orttiruvchi kreativ savollar tuzish, turli rasm, tasvir, jadval, diagramma, ramziy ifodalardan foydalanish, ta’lim oluvchilarga bayon etilayotgan o‘quv axborotlari bilan mutlaqo aloqasi bo‘lmagan g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlilikni topish kabi vazifalarni berish, kichik kichik guruhlarda ishlashlarini ta’minlash kabi harakatlarda aks etadi.

O‘qituvchilar tomonidan talabalarining kreativ fikrlashlariga erishish, o‘quv-bilish faoliyatlarida ijodiy mahsulotlarni yaratishlarini ta’minlashga undash, rag‘batlantirish qanday natijalarga olib kelgan bo‘lardi? Xuddi shu holat o‘qituvchilar izlayotgan hodisa bo‘lmasmidi?

Ma’lumki, ta’lim mazmunini ochib berishga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari bir nechta turga ajratiladi.

Ular (15-rasm):

O‘quv materiallarining asosiy turlari

Asosiy turlari

Ish qog‘ozlarida ifodalanadigan bosma o‘quv axboroti

Matnli bosma o‘quv axboroti

Matnli elektron o‘quv axboroti

Vizual bosma o‘quv axboroti

Vizual elektron o‘quv axboroti

Ish qog‘ozlarida ifodalanadigan elektron o‘quv axboroti.
O‘quv materiallari talabalarining umumiy va kasbiy bilimlarini boyitish bilan birga ularda dunyoqarashni boyitish, tasavvurni kengaytirish, ijtimoiy va tabiiy borliqqa ijobiy munosabatni shakllantirishga ham xizmat qilishi zarur. Shu sababli pedagoglar

o‘quv materiallarini tayyorlashga ijodiy yondashish bilan birga muayyan tamoyillarga rioya etishlari zarur.

Ya’ni (16-rasm):

O‘quv materiallarini tayyorlash tamoyillari

Tamoyillar

O‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi

O‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

Talabalarning yosh xususiyatiga mosligi

Amaliy ahamiyatga egalik

G‘oyaviylik

Ilmiylik

Vizuallik

Tizimlilik

Aniq maqsadga yo‘naltirilganlik

Estetik talablarga muvofiqlik

Ushbu tamoyillarga muvofiq tayyorlanadigan o‘quv materiallari mutaxassislik yo‘nalishi va ixtisoslik sohasidan qat’iy nazar barcha talabalarning ehtiyojlarini to‘la qondira oladi.

3. O‘quv mashg‘ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo‘yiladigan zamonaviy talablar. Shaxsda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish talab etiladi. O‘quv materiallarini talabalarga taqdim etishda savolning “Agarda ...?” deb qo‘yilishi topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning ham obyektiv, ham subyektiv fikrlash ko‘nikmalarini samarali o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Ken Robinson (2011 y.) ta’kidlaganidek, kreativlik talabalarda “nafaqat yangi g‘oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o‘quv masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko‘nikmalarini ham shakllantira olishi lozim.

Kreativlik jarayoni boshlang‘ich g‘oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo‘lsa ulardan voz

kechishni ham o'z ichiga oladi. Ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, ta'lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv ta'lim olish, o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqishi susaygan talabalar bilan ishlash maqsadida emas, balki barcha talabalar bilan jonli, qiziqarli, jo'shqin muloqotga kirishish, ularni faollikka undash uchun qo'llaniladi.

Qolaversa, kreativ xarakterga ega mashg'ulotlarni nafaqat san'at, madaniyat sohalari yo'nalishlarida, shu bilan birga barcha istalgan soha (biznes, iqtisodiyot, huquq, pedagogika, psixologiya, qurilish, qishloq xo'jaligi, muhandislik, sanoat va b. sohalari) bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar bilan ishlash jarayonida ham birdek samarali tashkil etish mumkin. O'qituvchilar, shuningdek, ta'lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashishda nafaqat o'quv fanlarini o'zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda ijobiy holatlarni qayd etayotgan talabalarga, balki ko'proq e'tiborni talab etadigan, ijodiy, kreativ fikrlash layoqatiga ega bo'lmagan ta'lim oluvchilarga ham birdek e'tiborni qaratishlari zarur.

Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv materiallarining maqsadga muvofiq, g'oyaviy mazmunga ega va sifatli tayyorlanishi muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlari uchun uch turdagi didaktik materiallar tayyorlanadi Didaktik materiallarning turlari

Turlari

O'quv materiallari mohiyatini yorituvchi o'quv axborotlari majmui (og'zaki bayon etiladigan va vizual namoyish etiladigan ma'lumotlar)

O'quv topshiriqlari mazmunini yorituvchi didaktik materiallar (og'zaki va yozma xarakterdagi o'quv topshiriqlari)

O'quv topshiriqlarining tezkor bajarilishini ta'minlovchi ish

qog'ozlari

Pedagoglarning o'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko'rishlari kutilgan ta'limiy natijaning qo'lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi:

- aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi;
- talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;
- o'quv axborotlarining asoslanganligi;
- talabalarning o'quv-bilish faoliyatini
- faollashtirish imkoniyatiga egalik;
- talabalarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlariga uchun sharoit yaratish;
- talabalarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va
- kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- zamonaviy ahamiyat kasb etishi;
- estetik jihatdan sifatli bo'lishi;
- noaniq tushuncha va iboralardan holi bo'lishi;
- aniq natijani kafolatlay olishi;
- turli vaziyatlarda qo'llay olish imkoniyatiga egalik;
- mavjud BKMni mustahkamlashga xizmat qilishi va b.

O'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o'quv manbalari (darslik, o'quv, metodik va o'quv-metodik qo'llanma, yo'riqnom, tavsiyanoma, lug'at, ensiklopediya, atlas, ish daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma'lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari mumkin. Bu o'rinda olingan ma'lumotlarning ishonchliligi muhim. Shu sababli pedagoglar didaktik materiallarni tayyorlashda o'quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e'tiborni qaratislari zarur. Binobarin, ilmiy asosga ega dalillar bilan boyitilgan didaktik materiallar talabalarning umumiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Demak, pedagoglarning o'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlari talabalarning umumiy rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati pedagog tomonidan taqdim etilayotgan o'quv materiallarining qay darajada sifatli tayyorlanishiga ham bog'liq. Shu sababli pedagoglar o'quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashishlari talab etiladi. Bunda ular o'quv materiallarini samarali shakllantirishda g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, talabalarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyillarni inobatga olishi o'quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. moyillarni inobatga olishlari zarur. O'quv mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashda ham pedagoglar zamonaviy talablar.

Nazorat savollari:

1. O'quv dasturlarini yaratishga kreativ yondashuv o'zida nimani ifodalaydi?
2. O'quv manbalarini yaratishga kreativ yondashishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
3. O'quv materiallarini kreativ yondashuv asosida tayyorlash qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz?
4. O'quv materiallarini kreativ yondashuv asosida samarali tayyorlashda qanday tamoyillar inobatga olinadi?
5. O'quv mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar nimalarda iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria

– Virginia, USA: ASCD, 2014.

2. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. Muall.: M.X.Toxtaxodjayeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: “Iqtisod-moiya”, 2010. – 136-140-b.

3. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo‘llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 b. 132

4. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). Shaxs kamoloti va faoliyat (muloqot), ularni boshqarish ma’rifiy pedagogic muammo sifatida. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 81-88.

5- Mavzu: Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tasavvurni rivojlanishi va pedagogikada ilmiy ijodkorlik.

Reja:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tasavvurni rivojlanishi va pedagogikada ilmiy ijodkorlik haqida tushuncha

2. Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.

Tayanch tushunchalar: Psixologiya, pedagogika, pedagogik texnologiya, Korrekstion (maxsus) pedagogika imkoniyati cheklangan kar-soqov (surdopedagogika), ko‘r (tiflopedagogika).

Neyropedagogika – ijtimoiy, texnik, madaniy-maishiy. Psixologiya pedagogik texnologiyalarni yaratish va ta‘lim amaliyotiga samarali tatbiq etish masalalarini o‘rganadi. Korrekstion (maxsus) pedagogika – imkoniyati cheklangan kar-soqov (surdopedagogika), ko‘r (tiflopedagogika), aqliy jihatdan rivojlanishda ortda qolgan (oligofrenopedagogika) bolalarga ta‘lim berish va ularni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. ususiy metodika (xususiy fanlarni o‘qitish) – turli o‘quv fanlari (m: fizika, matematika, biologiya. kimyo. tarix, huquq, jismoniy tarbiya va h.o.lar)ni o‘qitishning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq qiladi.

Kasbiy pedagogika – turli (ijtimoiy, texnik, madaniy-maishiy, ishlab chiqarish) yo‘nalishlarida tegishli soha (mas., qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish va boshqalar) bo‘yicha kasbiy faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yish yo‘llarini o‘rganadi. Ta‘lim menejmenti – ta‘lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etish va oqilona boshqarish masalalarini tadqiq qiladi. Qiyosiy pedagogika – ta‘limning jahon, mintaqa, davlat miqyosidagi rivojlanishining umumiy va alohida tendensiyalari, qonunlari va qonuniyatlarini o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganadi, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy

jihatlari, milliy pedagogik madaniyatlar almashinuvining shakl va usullarini aniqlaydi. Pedagogik innovatika – ta’lim sub’ektlari nuqtai nazardan pedagogik innovatsiyalarning mohiyati, paydo bo’lish, rivojlanish qonuniyatlarini hamda pedagogik an’analar bilan kelajak ta’limining loyihalashtirilishi o’rtasidagi aloqalarni o’rganadigan fan. Harbiy pedagogika – harbiy ta’limning o’ziga xos jihatlari, uni tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalari, ilg’or texnologiyalarini, harbiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish yo’llarini ochib beradi.

Hamkorlik pedagogikasi – turli fanlar yoki mutaxassislik asoslarining ta’lim beruvchi hamda oluvchilar o’rtasidagi o’zaro muloqot asosida samarali o’rganish mazmuni, tamoyillari, shakllari, metodlari va vositalarini ko’rsatib beradi.

Neyropedagogika – inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funkstional) rivojlantirish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy hulq-atvorni psixologik korrekstiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishni tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari, samarali shakl va metodlarini, shuningdek, yangi turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi. Pedagogik texnika – nopedagogik OTM pedagoglarini pedagogik mahorat va pedagogik texnika asoslari bilan tanishtirish orqali ularda ta’lim jarayonini sifatli, samarali tashkil etish ko’nikma, malakalarini rivojlantirish masalalarini o’rganadi.

Pedagogik kvalimetriya – ta’lim sifatini izchil nazorat qilish va samarali boshqarishga oid muammolarni tadqiq etadi. Pedagogik jarayonlarning tizimli tahlili – pedagoglarda ta’lim va tarbiya jarayonlarining mohiyatini yaxlit tizim sifatida anglash, turli, shu jumlaan, muammoli vaziyatlarni yaxlit, izchil tahlil qilish malakalarini rivojlantirish muammolarini tadqiq etadi.

Pedagogik prognostika va pedagogikaning istiqbolli yo’nalishlari – mavjud sharoitda pedagogik turkum fanlarni sifatli o’qitish, ta’lim va tarbiya jarayonlarining samaradorligini oshirish muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish yo’llarini

izlash, istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash masalalarini tahlil etadi. Pedagogik jarayonni boshqarishda qarorlar qabul qilish – pedagoglar tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonlarining izchil, tizimli, samarali boshqarilishini ta’minlash, mavjud pedagogik vaziyatlarda tizimli tahlil asosida oqilona qarorlar qabul qilinishiga erishish masalalarini o‘rganadi. Falsafa – tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Estetika asoslari – nafis san’atni, badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi go‘zallikning mohiyati, shakllarini, inson va ijtimoiy borliq o‘rtasidagi qadriyatlar munosabatini o‘rganadi. Psixologiya – inson faoliyati, shaxs xatti-harakatlarida borliqning aks etishini, ruhiy jarayonlar, hodisalar va xislatlarning mohiyatini yoritadi.

4. Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni, natijalari hisobiga ta’minlanadi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob’ekti va sub’ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik va aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega jarayon. Zamonaviy sharoitda “Kreativ pedagogika” tomonidan kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish yo‘lida quyidagi pedagogik ilmiytadqiqot metodlardan foydalanilmoqda (3-rasm):

Quyida mazkur metodlarning mohiyati to‘g‘risida qisqacha so‘z yuritiladi.

1. Suhbat metodi pedagogik kuzatish chog‘ida talabanning kreativlikka oid bilimlarini boyitish, vaziyatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub’ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga

yordam beradi. Suhbat indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida talabalarning kreativlik imkoniyatlari to‘la namoyon bo‘lishiga erishish muhim.

2. Pedagogik tahlil. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan shaxs tomonidan kreativlik sifatleri, imkoniyatlari va malakalarining o‘zlashtirish darajasini aniqlashdan iborat.

Suhbatning samarali kechishini ta‘minlovchi shartlar:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash, savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta‘minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining sonini aniqlashtirish;
- 4) suhbatdosh to‘g‘risida avvaldan muayyan ma‘lumotlarga ega bo‘lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo‘lish;
- 6) suhbatdoshning o‘z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma‘lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish

“Kreativ pedagogika” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari:

Pedagogik tahlil, Suhbat, Anketa, Pedagogikpsixologik tashxis metodlari, Pedagogik tajriba, Pedagogik kvalimetriya, Bola (talaba)lar ijodini o‘rganish, Ekspert baholash, Pedagogik kuzatish bo‘lib, pedagog tomonidan ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi. 3. Pedagogik-psixologik tashxis metodlari. Bu kabi metodlar shaxsning kreativlik sifatleri va ijodiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalariga egaligini tashxislash hamda baholashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda shaxsning kreativlik sifatleri, ijodiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalariga egaligini tashxislashda o‘nlab metodlar qo‘llanilmoqda. Ular orasida bir guruh metodlar amaliy jihatdan samarali bo‘lib, ular rivojlangan xorijiy mamlakatlarda keng qo‘llanilmoqda. Gauenaning “Zahiraviy model”, Slosson testi, Vekslerov shkalasi. Vekslerov shkalasi (“WPPSI” testi), boshlang‘ich maktablar uchun mo‘ljallangan Stanford testi hamda Torrens testleri (jumladan, “Tugallanmagan

rasmlar testi) shular jumlasidandir.

4. Pedagogik tajriba (lot. “eksperiment” – “tajriba qilib ko‘rish”) metodidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in‘ikosiga ega bo‘la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Pedagogik tajribalarni amalga oshirishda asosiy e‘tibor ularning samarali kechishiga qaratiladi. Bunda esa bir qator shartlarni inobatga olish lozim.

Ya‘ni: Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Anketa (fr. “tekshirish”) metodi yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Metod tizimli savollar. Pedagogik tajriba samaradorligini ta‘minlovchi shartlar: tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi; tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi; tadqiqot ob‘ektlari va usullarining to‘g‘ri tanlanishi; tajriba o‘tkazilish vaqti va davomiyligining aniqlanishi; zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi; tajriba ma‘lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash

Pedagogik tajriba .Tabiiy tajriba Laboratoriya (maxsus) tajribasi Tajriba ishi asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Savollarga javoblar, odatda, yozma shaklda olinadi.

O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketalar quyidagicha bo‘ladi:

1) ochiq savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar)ga ega;

2) yopiq savollar (“ha”, yo‘q”, “ijobiy”, “salbiy” va h.k. tarzdagi javob variantlarini tanlashga imkon beradigan savollar) ga ega anketalar. Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur.

6. Pedagogik kuzatish metodini qo‘llashda ta‘lim

muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq tahlil qilinadi. PK murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, shaxsda kreativlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

7. Pedagogik kvalimetriya ta'lim sifatini nazorat qilish va samarali boshqarish maqsadida qo'llaniladi. Bunda turli darajadagi testlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish (keyslarni echish) asosida shaxsning kreativlik sifatleri va ijodiy faoliyatni tashkil eta olish ko'nikmalariga egaligi, ularning darajasi o'rganiladi hamda baholanadi.

8. Bola (talaba)lar ijodini o'rganish metodi talabalarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma'lum fan sohalari bo'yicha BKM darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – ikki varaqli kundalik, insho, yozma ish, kichik esse, referat.

Anketa samaradorligini ta'minlovchi shartlar:

1) savollar muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) savollar yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;

3) savollar o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) savollarga to'la javob qaytarilishi uchun etarlicha vaqt ajratilishi kerak;

5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylanmasligi zarur;

6) javoblar muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishga qo'yiladigan shartlar: kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik; kuzatishni tizimli

ravishda yo‘lga qo‘yish; kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish; har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish; xulosa chiqarishga shoshilmaslik kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari, pedagogik amaliyot hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metod ma’lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

9. Ekspert baholash metodi zamonaviy sharoitda deyarli barcha sohalara olib boriladigan tajribalarda jarayonida qo‘llaniladigan va keng ommalashgan ilmiytaqiqot metodlardan biri sanaladi. Ko‘p holatlarda shaxsda kreativlik sifatleri va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash psixolog, pedagog va bevosita kreativlikka dahldor sohalarning vakillari – malakali mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladi. Ammo ta’lim jarayonida hamkorlik ta’limi tamoyillariga muvofiq talabalarning o‘rtasida ham ularning o‘quv topshiriqlarini bajarishga nisbatan kreativ yondashuvlarining samaradorligini baholash maqsadida ekspert guruhi shakllantirilishi ham mumkin. Bu guruh talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy mahsulotlar va ularning sifatini baholaydi.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda ta’lim va tarbiya jarayonlarining sifatli, samarali tashkil etilishi ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Mazkur zaruriyatning qondirilishi pedagoglarning yuqori darajada kasbiy kompetentlik, mahorat va malakalarga ega bo‘lishlarini taqozo etadi. Pedagoglarning ta’lim jarayoniga kreativ yondashuvlari talabalarda ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishni yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi. Qolaversa, talabalarning mutaxassis sifatida kreativ sifat, ijodkorlik ko‘nikma, malakalarini faol o‘zlashtirishlari uchun zarur sharoitni yaratadi. “Kreativ pedagogika” fanining asoslari talabalar va pedagoglarda kreativlik sifatleri va ijoiy faoliyat ko‘rsatish malakalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Bola (talaba)lar ijodini o‘rganishda:

- 1) fan olimpiadalari;
- 2) tanlovlar;
- 3) maktab ko‘rgazmalari;
- 4) festivallar;

5) musobaqalar va h.z.larning natijalarini tahlil qilish, samaradorligini baholash orqali shaxsning muayyan ma’naviy-axloqiy sifatlar va amaliy faoliyat ko‘nikmalariga egaliklari baholanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish muvaffaqiyati, kasbini san’at darajasiga olib chiqib, o‘nlab, yuzlab shogirdlar tayyorlaganligi uchun berilgan unvondir. Yoki ma’lum bir dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va ma’suliyatli vazifadir. Pedagog o‘z ixtisosligi bo‘yicha ta’lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas’uldir. U muntazam ravishda o‘z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrogi, kommunikativ kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Endilikda o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta’lim-tarbiyaning yangi-yangi usul va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. “Kompetensiya” tushunchasi, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv, kompetensiya egasi ma’nosini anglatib, bu atamalarning mazmuni haqida toxtalish uchun, eng avvalo, asrlar davomida shakllangan bu boradagi milliy an’ana va qadriyatlarga e’tibor qaratamiz.

Nazorat savollari:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tasavvurni rivojlanishi va pedagogikada ilmiy ijodkorlik haqida tushuncha
2. Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari

3. “Kreativ pedagogika”ning asosiy kategoriyalari qaysilar?
4. “Kreativ pedagogika” qanay fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi?
5. Kreativ shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda qanday ilmiytadqiqot metodlari qo‘llaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб.: SPGUTD, 2006.
2. Башина Т.Ф., Илин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Sirotyuk F.S. Diagnostika odaryonnosti / Ucheb.posobie. – M.: DirektMedia, 2014. – 1229 s.

6-mavzu: TALABALARNING KREATIVLIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Reja:

1. Kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish
2. Kreativlik termini
3. Kreativlik mezonlari

O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta’lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatishi, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol usullardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Bu haqda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan.

Shunga muvofiq interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir .

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida

mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirligni belgilab beradi.

Ko'rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellektintuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida kechadi.

Buyuk allomalarimiz yangi g'oyalar, yangicha yondashuvlarni ta'limga joriy qilish bo'yicha tinmay kurash olib borganlarini ko'rish mumkin. SHarqning buyuk allomalari Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Axmad al Farg'oni, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Boburlar o'z davrining yangi ilg'or pedagogik g'oyalar, fikrlar namoyandalaridir. Mustaqil ta'limo'sha davridagi eng samarali usullar hisoblangan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan allomalar, dunyodagi eng mashhur daholar hisoblanib, asosan, mustaqil, mutolaa qilish natijasida olamshumul yangilik, kashfiyotlarni ixtiro qilishga muvassar bo'lganlar. Ularning asarlarida mustaqil ta'lim, o'zlikni anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, tarbiyalash, o'qish, o'rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik asosida yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan.

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdieva, E.Yuzlikaeva, Sh.Sharipov, A.Umronxo'jayev, A.Valiyev, Ruziev E.I, Ashirboev A.O, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning bo'lajak mutaxassislarni kasbiyinnovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o'ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta'lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta'minoti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan.

Innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini ijodiy faollashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan erkin ta'lim muhitini tashkil etish A.Abuqodirov, N.Azixodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo'ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjaev, Ya.G'afforov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan.

Kreativlik termini angliya –amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

Amerikalik olim J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;

- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

Talabalarning innovatsion faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiyadir. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. “Kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) –individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

A.X.Maslou kreativlikni 2 turga bo‘ladi: iste’dodning kreativligi va shaxsning o‘z - o‘zini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o‘z - o‘zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog‘langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko‘p sohalarida duch kelishimiz mumkin.

A.X.Maslou kreativlikda o‘z - o‘zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o‘tgan: birinchisi - « ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo‘ladi», «ikkinchisi - ixtiyoriy, og‘ir mehnat bilan bog‘liq, uzluksiz ta‘lim, kamolotga intiluvchanlik» .

A.X.Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko‘radi, ya’ni barcha insonlardagi tug‘ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma’lum ijtimoiy to‘siqlar natijasida yo‘qolib ketadi deb hisoblaydi. Interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari quyidagilardan iborat.

T.A.Barisheva va Yu.A.Jigalovalar pedagogkada kreativlikni tizimli (ko‘p bosqichli, ko‘p o‘lchamli) psixik (ruhiy) ta‘lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potentsialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va xokazolarni ham kiritadi.

Shuningdek kreativlikni mezonlari Dj.P.Gilforda,

E.P.Torrans tomonidan belgilangan :

ravonlik: ma'lum bir vaqt oralig'ida ko'plab fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati;

o'ziga xosligi: aniq, taniqli, umum e'tirof etilgan, oddiy yoki qat'iy belgilanganidan farq qiluvchi g'ayrioddiy, nostandart g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

sezuvchanlik: g'ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o'tishga tayyorlik;

mo'tadillik: g'ayritabiiy kontekstda ishlashga tayyor bo'lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlashga moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko'rish qobiliyati;

rivojlanish: paydo bo'lgan g'oyalarni batafsil ishlab chiqish, ularni sath va uyi tizimlarga aylantirish qobiliyati;

to'xtashga qarshilik: bir xillikka qarshilik ko'rsatish, ya'ni muammoni yechish jarayonida kelib tushayotgan turli informatsiyalar andozalariga qarshilik ko'rsatish.

noaniqlik: stimuldand mustaqil mantiqiy reaksiyagacha bo'lgan qobiliyat;

“nomlash”ning mavhumligi: shaxsning muammo mohiyatini tushunish qobiliyati, aslida ahamiyatga ega bo'lgan nomni tushunish va aksini aks ettirish qobiliyati (“nomlash” jarayoni mufassal shaklni muammoning mohiyatini ko'rish qobiliyatini og'zaki shaklga aylantirish qobiliyatini aks ettiradi);

ko'p vazifalilik: Bir vaqtning o'zida bir nechta loyihalarda ishlash qobiliyati;

samaradorligi: mahsulotning yaroqliligi, ularning foydasi, mahsulotning maqsadli auditoriyasi tomonidan yangi, noyob, original bo'lishi haqidagi idrok;

mamnuniyat: kreativlikning natijasi.


Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash; ular uchun yechim topish

qobiliyati; bilim olish, malaka va ta'lim berish usullarini yangi holatga o'tkazish imkoniyati; ilgari o'rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar talaba egallayotgan bilimlarni o'zi qidirib topish, mustaqil o'rganib, tahlil qilish, xulosalarni ham o'zi keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'rganuvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga ko'maklashish ularning o'z mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi.

Interfaol ta'limda o'qituvchi o'quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo'lib, talaba bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va kutilayotgan natijalar bevosita ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi. Interfaol ta'limni amalga oshirishning muhim vositasi - interfaol o'qitish metodlaridir.

Interfaol metodlar – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini hamda o'qituvchi bilan hamkorliklarini tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar



Interfaol metodlarning mohiyati

Interfaol metodlarning mohiyati o'qitish jarayonida talaba faolligini oshirish, talabani pedagogik faoliyatning markaziy figurasiga aylantirishdan iboratdir. Talabalarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni o'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsda mavzuga qo'yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo'li, usuli puxta ko'rib chiqilishi lozim. O'qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usuli talabaga nima berishini oldindan ko'ra olishi va darsni to'g'ri tashkil qilishi kerak. Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – talaba – talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillari

1. Talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o'quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo'nalishlarini kuchaytirish; talabalarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish

2. Talabalarning kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo'naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini bilish, o'z mavqeiga ega bo'lish, talabalarning mustaqil

ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish; talabalarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy-hamkorlik muhitini vujudga keltirish;

3. Talabalarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish

4. Talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida uchraydigan kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion barerlarning bartaraf etishning samarali yo'llarini belgilash.

5. talabalarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;

-Oliy ta'lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning

reproduktiv, ijodiyizlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko'nikma va malkalarini rivojlanishining o'zgarishini baholash;

– Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz Rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish

Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillarni aniqlash

O'qituvchi interfaol ta'lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil,

ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi

Interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari talabalarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. SHu sabali ularlarda kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol o'qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullarini aniqlash zaruriyati mavjud. Interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga

muvofiq deb topdik:

- talabalarda ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;

- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish; keyslar bilan ishlash;

- guruhiy ish shakllari va debatlarini tashkil etish; o'quv loyihalarini tayyorlash;

- portfoliolarni shakllantirish; to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish.

- ijodiy topshiriqlarni bajarish;

- kichik guruhlarda ishlash;

- treninglar;

- videotreninglar;

- taqdimotlar;

- viktorinalar;
- ijodiy loyihalash mashg‘ulotlari;
- interfaol ekskursiyalar;
- interfaol ma’ruzalar;
- vebinar;
- davra suhbatlari.

Buning uchun talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professor-o‘qituvchilar, o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi munosabatlari va o‘zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o‘qitish jarayonini yo‘lga qo‘yishdan iborat. Demak, kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

Nazorat savollari:

1. Kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish uchun qilinadigan ishlar
2. Interfaol o‘qitish metodlarining strukturasini izohlab bering
3. Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillarni ayting

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr. <https://lex.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-son Qarori. Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi. 2017
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7

fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni. Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi <https://lex.uz/>

7-Mavzu: Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlikni shakllantirish

Reja:

1. O'qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirish
2. Kreativlik- shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya
3. Kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi sa'y harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, pedagogik mahorat, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim va tarbiyaishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida o'qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib boorish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligimaqolamizmavzusidol zarbliginingyanabirko'rinishihisoblanadi. Vaholanki, bu muammo bugungi kunga qadar ko'plab G'arb mamlakatlarida turlicha tahlil etilgan va o'rganilgan. Masalan, N.N. Nechaev, Y.A. Ponomarev, D.V. Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda o'rgangan bo'lsalar, N.A. Berdyaev, V.S. Bibler, V.N. Drujinin, P.A. Florenskiylar kreativlikning ma'naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan.

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida ham ushbu termin ishlatila boshladi. Ayniqsa, pedagogika fanining alohida va yosh tarmog'I sifatida shakllanib boshlagan Innovatsion pedagogikada Ushbu terminga bod-bod duch kelmoqdamiz. **R.A.Mavlanova** o'zining «**Boshlang'ich**

ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya» nomli o'quv qo'llanmasida kreativlikning o'zi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Qo'llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlari maxsus ilmiy tatqiqot ob'ekti sifatida tatqiq etilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi kreativ yondoshuvni talab etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik faoliyati hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. Ko'plab ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik tushunchasiga nisbatan bir-biriga zid bo'lgan quyidagi turli xil qarashlar majud. Bular:

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir.

2. Kreativlik – bu insonning o'ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.

3. Kreativlik – bu intellekt (aql) ning mahsulidir.

4. Kreativlik –bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.

5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.

6. Kreativlik –bu ijodkor insonlarning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.

7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan kategoriyadir.

Pedagog olimi R.A.Mavlanova an'anaviy psixologiya va pedagogikada kreativlikka shaxs kategoriyasi sifatida qaralishini, uni talqin qilish, aniqlash borasida bahslar yuritilganligi haqida quyidagicha fikr bildirganlar:

- kreativlik tafakkur sifatida (J.Gilford, Y.K.Tixomirov) yoki intellectual faollik sifatida (D.B.Bogolevskaya, L.B.Yermolayeva-Tomina),

- yoki shaxs sifatlarining integratsiyalashuvi (Y.A.Ponomarev va boshqalar). Kreativlikni o'rganishda amalga oshirilgan nazariy tahlil uni kasbiy anrogogikada qo'llashning umumiy qonuniyatlari va o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi (V.M.Morozov). Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o'ta intellektual-evristik jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrllovchi, tabaqalash tirilgan ta'lim sifatida qaraymiz.

Kreativlik- shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin. O'qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning mavzuimiz ob'ekti bo'lgan o'qituvchining kreativlik faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi. Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olima **R.A.Mavlanova** tomonidan olib borilgan tatqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda **biz quyidagi fikrlarni e'tirof etmoqchimiz:**

1. Kreativlik o'qituvchilarni innovatorlikka undovchi

pedagogik kategoriya hisoblanadi.

2. Kreativlik o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasidir. Chunki tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, o'qituvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.

3. Kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalariga, yechimlarni (evristik) topa olishi bilan bog'liqdir.

4. O'qituvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyotlar, yo'nalishlar va «Men» kontsepsiya»laridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir. O'qituvchining kreativlik faoliyati, avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Nima uchun o'qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirish zarur.

2. Kreativ shaxni rivojlantiruvchi kategoriyalar nimalarda nomayon bo'ladi

3. O'qituvchi ijodkorligini nomayon etishi uchun qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak

Foydalanilgan adabiyot va internet saytlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. // Barkamolavlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. Sharq. 1997

2. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. "Boshlang'ich ta'limda innovatsiya". T., TDPU 2007-y.

3. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya.” T., 2013.

4. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. :

TDPU, 2003.

5. <http://ziyonet.uz/>

6. <http://pedagog.uz/>

7. <http://edu.uz/>

8-Mavzu: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qituvchining roli.

Reja:

1. Bolalarda kreativlikni rivojlantirish
2. O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning hamkorligi
3. Kreativlik va ijodkorlik

Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo‘lib, uning o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog‘liq. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e‘tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e‘tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

- 1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta‘sir qiluvchi muhim

omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yo'qlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu,

ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmga bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiymadaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Bizningcha, o'quv vaziyati ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi o'zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat:

- o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligi;
- o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

O'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorligi o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o'quv harakatlariga aylanadi. Natijada, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o'sib o'tadi. Materiallar tahlilining ko'rsatishicha, mantiqiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o'zlashtirish mahsuldor bo'ladi. Ilmiy manbalarda ta'limning shunday tashkil etilishini hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat vaziyati, deb atash qabul qilingan. Pedagogik adabiyotlar tahlili va ijodiy tajribalarimiz natijalariga ko'ra hamkorlikdagi mahsuldor o'quv faoliyati vaziyatini tashkil qilishning 2 asosiy tamoyilini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko'ra shaxs o'z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida

mazkur faoliyatning uzluksiz shakllanishi ko'zga tashlanadi.

2.O'qituvchi-o'quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog'liqligi tamoyili. O'quv jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarning ta'limga qay darajada ixlos qo'yishi o'qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi muhitning to'g'ri uyushtirilishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g'ayratini sarflashga undaydi. Bu o'zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o'quvchi o'zini pedagogik ta'lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O'qituvchining o'rganilayotgan fan bo'yicha qaysidir bir ma'lumotga aniqlik kiritish paytida o'quvchilarga yordam so'rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O'quvchilarni o'rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o'qish-o'qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishningagina sharti bo'lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. O'quvchi o'qitish va tarbiyalash jarayonining o'zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashvili ta'lim jarayonida o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish lozimligini ta'kidlab, shunday deydi: «O'quvchining o'quv-biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o'quv material va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta'lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko'ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo'lgan muhitda o'quvchi o'quv topshiriqlarini oson o'zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko'rgan o'quvchi yanada murakkab bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi».

Boshlang'ich ta'lim - bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi.

Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik

qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan.

O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma'no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o'xshamas yo'l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbqiq eta olish qobiliyati deb oldik. Ya'ni biz tadqiqotimizda ta'lim sohasiga oid kreativlikni ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ko'rib chiqamiz. Kreativlik ijodkorlikka nisbatan kengroq tushuncha. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar.

Hato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho‘chish, haddan tashqari baholarga e‘tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo‘rqish hissi mavjud o‘quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdirasilov.S “Tasviriy san’at va o‘qitish metodikasi”
Toshkent - “Fan va texnologiya” - 2012

2. S.F. Abdirasilov, Boymetov.B, Tolipov.N. “Tasviriy san’at”-T.”Cho‘lpon” nashriyoti 2012

3. Abdullayev N.U. “San’at tarixi” 1-tom. Toshkent. O‘qituvchi, 1986 yil.

4. Sadatov C. The importance of virtual museums in the formation of students' educational competencies on fine literacy //Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19). – 2020. – T. 1. – №. 04. – C. 201-203.

5. Sadatov C. K., Normatova G. Some species eksperimentno-experimental work that makes a teacher //European Conference on Education and Applied Psychology. – 2014. –C. 174-176.

6. Bahodirovna M. Z., Xolmurodovich S. C. Methodical Interpretations on the Organization of Independent Educational Classes in the Subject of Painting //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2020. – T. 2. – №. 11. – C. 24-27.

9-Mavzu: O‘qituvchining ta’lim jarayoniga kreativ yondashuvi.

Reja:

1. O‘qituvchining ta’lim jarayoniga kreativ yondashuvi
2. Pedagogik kreativlik sifatleri.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy, iqtisodiy, ta’lim, fan, texnika, ijodkor, iste’dod, ta’lim, rivojlanish, modernizatsiya, dunyoqarash, qobiliyatni.

Bugungi kunda jahonning ilg‘or mamlakatlari qatori respublikamizda ham ta’lim tizmini islox qilishga katta e’tibor berilmoqda. Bunday zamonaviy ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishlar, talim tizmining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jaxon miqyosdagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini o‘zgartirib, yangilab borishni ko‘zda tutadi. Ta’lim muassasalarining bir turi sifatida maktabgacha ta’lim tashkiloti, bolalarning tarbiyasi, ta’limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo‘nalganligi bilan bog‘liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu asnda tarbiyalanayotgan bolalarning yosh xususiyatlariga ko‘ra maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati boshqa ta’lim tashkilotlarida kechadigan pedagogik jarayonlardan jiddiy farq qiladi va bugungi kunda ushbu ta’lim turiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zining “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz” kitobida: “O‘z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo‘lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa – kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi”- degan fikrni e’tirof etadilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida “bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan

yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy- estetikva jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz- bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olinishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Kelgusi yil yakuni bilan maktabgacha ta'lim qamrovini 65%ga, 2023 yil oxirida esa 75% yetkazishimiz kerak" deya fikr bildirgan. Bundan tashqari Prezident SH. Mirziyoyevning 2019- yil 19- oktyabrdagi maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ta'kidlaganlaridek: "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunda kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi". Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga mos yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi va bunda pedagoglarning faolligi, ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ta'lim jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagogning ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoiy bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy

tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxslardir. "Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida no'ananaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuygusi va erkinlik mavjud bolishiga e'tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tugilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g'arblik vasharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya vapedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy va kreativ kompetentligini oshirish uchun qator chora- tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talab – eng avvalo o'z ustida izlanishlar olib borishidir. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislarining kasbiy yetukligi bilan birga kreativ kompetentligi hamdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma'nan barkamol, jismonan va ruhan tetik farzandlarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida kamol toptirish ahamiyati, Vatanimizning ravnaqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergan ta'lim sifati va tarbiya

mohiyati bilan chambarchas bog‘liqligi alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk ma’naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o‘zida mo‘jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishga zamin hozirlaydi. Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turliushlublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish talabetiladi. “Kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlabchiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibigakiruvchi ijodiy qobiliyati. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammoni hal qilishga intilish, ilmiy tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zoro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi, shakillantiriladi va asta-sekin takomillashtirilib, rivojlantirib boradi. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga e’tibor qaratishi lozim. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy irodaviy sifatning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Zamonaviy ta’lim barcha turdagi ta’lim muassasalarida faoliyat

yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogic xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo'lajak mutaxassislarning har qanday jarayonda o'zining ijodiy va kreativ qobiliyatlarini namoyon qilishida foydali va kerakli ekanligini ko'rsatadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to'laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan, dunyoni yangicha qarashlar bilan anglaydigan kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda kreativ fikrlash va tafakkurni shakllantirish eng avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, mutaxassislardan kasbiy faoliyatlarida kreativ kompetentlikni talab etmoqda. Barkamol shaxsni voyaga yetkazishda roli beqiyos sanaladigan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari hamda mutaxassislarini kreativ kompetentligini rivojlantirish eng avvalo oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining zimmasidadir.

Pedagoglar kreativlik potentsialiga ega bolishi uchun esa kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur: -kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish; -ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;-hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.Har bir shaxsning o'zini - o'zi rivojlantirishi va o'zini - o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati – tarbiyachi va xodimlarning kasbiy rivojlanishi tavsifi bo'lib, zamonaviy bosqichida iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassisning kreativ qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanishi e'tirof etiladi. Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelibchiqib, unga shaxsning o'ta intellektual-evristik

jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrllovchi, tabaqalashtirilgan ta'lim sifatida qaraymiz. Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bolgan bilimlaring ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalargaintilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik jarayonini tashkil etish va boshqarishning murakkabligi shundaki, bunda ijodiy individuallikning nafaqatongli, balki ong osti tushunchalari paydo bo'ladi. Pedagog-tarbiyachi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. O'zini o'zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki mashg'ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. O'zini o'zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ. Shuni tavsiya etamanki, pedagog- tarbiyachilar doimiy izlanishda bo'lishi kerak. Chet elning rivojlangan davlatlari ta'lim tajribasini kuzatish, o'rganishi ular bilan bevosita muloqotda bo'lishi, tajriba almashishi, bir xillikdan qochish, yangi ta'lim texnologiyalaridan mashg'ulotlar jarayonida foydalanishi ular

pedagogik jarayonning samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazarsolish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib, tarbiyachining kreativligi deb, uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, mulohazadagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Tarbiyachining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir.

Nazorat savollari:

1. Kreativ tasavvurni rivojlantirish va yangi yechimlarni topish usullari.
2. "Kreativ pedagogika"ning asosiy kategoriyalari qaysilar?
3. "Kreativ pedagogika" qanay fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barisheva T.A., Jigalov Yu.A. Psixologo-pedagogicheskie osnovi razvitiya kreativnosti – SPb.: SPGUTD, 2006.
2. Bashina T.F., Ilin E.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Sirotyuk F.S. Diagnostika odaryonnosti / Ucheb.posobie. – M.: DirektMedia, 2014. – 1229 s.

10- Mavzu: Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari

Reja:

1. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirish
2. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi
3. Kreativ yondashuv innovatsiyalar bilan bog‘liq jarayon.

Dunyo ta‘lim taraqqiyotining jadal suratlarda rivojlanishi avvalambor ta‘lim jarayoniga innovatsion va kreativ yondashish lozimligini taqozo etmoqda. Chunki jahonda har qaysi jamiyatning rivojlanishi va yo‘nalishini begilab beruvchi innovatsion-kreativ ijodkorlik ta‘siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida ijodkorlikka bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSH, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda o‘qitish jarayonlari innovatsion-kreativ yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta‘limi, oliy ta‘lim xodimlari bilan bo‘lgan muloqotda uzluksiz ta‘lim tizimida olib borilishi kerak bo‘lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, “... bugungi kunda ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning obro‘sini ko‘tarish, shu bilan bir qatorda bugun o‘qituvchilarning o‘zlari ham ta‘lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim”[1], - degan bir qator fikrlarni bildirib o‘tdi.

Shuningdek, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta‘lim-tarbiyaning uzviy bog‘liqligini yanada kuchaytirish maqsadida “Sharqona qarashlarimizda ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi. Bu esa bugungi kun o‘qituvchisidan katta mas‘uliyatni talab qiladi”[2], - deb ta‘kidladilar.

Demak, bugungi kun o'qituvchilari ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashar ekanlar, ular o'z faoliyatlarini zamon bilan hamohang tarzda tashkil etishlari talab etiladi. Shuningdek, umumta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari umumiy va maxsus kompetentsiyalarga ega bo'lishi hamda o'z faoliyatida ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon eta olishi lozim.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh) dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh) gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan kasbiy kompetentsiyalar va ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik", "kreativ yondashuv" tushunchalarining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga

oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma‘lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”.

Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajad a noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir .

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) –shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, “kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi”.

O‘qituvchilarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Shuningdek, o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi.

Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo‘sh, shaxs o‘zida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin? Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “Agarda o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki ijodkorlik faoliyatni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash o‘qituvchilardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda muammo yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda shaxs yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “o‘quvchilar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”.

Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi tadqiqot mavzusi dolzarbligining yana bir ko‘rinishi hisoblanadi. Vaholanki, bu muammo bugungi kunga qadar ko‘plab G‘arb mamlakatlarida

turlicha tahlil etilgan va o'rganilgan. Masalan, N.N. Nechayev, Y.A. Ponomarev, D.V. Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda shaxsning individual psixologik xususiyati sifatida o'rgangan bo'lsalar, Agababyan A. R., Arutyunyan N. D., Aleynikov A.G., Andreyev V.I., Vishnyakova, N.F., Drapeau Pattilar kreativlikning ma'naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan.

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida ham ushbu termin ishlatila boshladi. Ayniqsa, pedagogika fanining alohida va yosh tarmog' i sifatida shakllanib boshlagan "Innovatsion pedagogika"da ushbu terminga bod -bod duch kelmoqdamiz. R.A.Mavlonova o'zining "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya" nomli o'quv qo'llanmasida kreativlikning o'zi nima, uning shakllanishi asalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Qo'llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlarini hamda kasbiy va shaxsiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish jarayonida maxsus ilmiy tadqiqot ob'yekti sifatida tadqiq etilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi kreativ yondoshuvni talab etadi.

Kreativ yondashuv bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining ijodiy faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan xabardor bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, o'qituvchi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishi, o'quvchilar ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin.

Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olim R.A.Mavlonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda quyidagi fikrlarni

e'tirof etish mumkin:

1. Kreativlik shaxsni innovatorlikka (yangilik yaratish) undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.


2. Kreativ salohiyat o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir. Chunki, o'qituvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, u hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.

3. Kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalarga egaligi, optimal yechimlarni topa olishi bilan bog'liqdir.

Mualliflik yondashuvi asosida kreativ salohiyat tushunchasining mazmunini quyidagicha izohlash mumkin: Kreativ salohiyat – bu shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishida va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik salohiyati bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas aloqador. O'qituvchilar tomonidan kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish jarayonida ijodkorlik salohiyati an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Tafakkurning tezkorligi;
- Yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- Tashabbuskorlik;
- Noaniqlikka toqat qilish;
- Zakovatli bo'lish;
- Muammolarni hal etishga nisbatan noodatiy yondashuv.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy muvaffaqiyatga erishish shaxsdagi ijodkorlik qobiliyatining qay darajada rivojlanganligi bilan uzviy aloqadordir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishga doir faoliyatli yondashuv omili mazkur jarayonda quyidagi ish metodlaridan foydalanish samarali ekanligini ko‘rsatdi. (1-rasmga qarang)



Nazorat uchun savollar:

1. Innovatsion-kreativ yondashuv asosidagi o‘qitish jarayonlari qaysi davlatlarda amalga oshirilmoqda.
2. Kreativ yondashuv nima uchun innovatsiyalar bilan bog‘liq jarayon deb aytamiz
3. O‘qituvchilar tomonidan kasbiy kompetentsiyalarni o‘zlashtirish jarayonida ijodkorlik salohiyati an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda nimalarda namoyon bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimi o‘qituvchilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi. 2019.08.23.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. <http://uza.uz>
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 260

4. Агабабян А. Р., Арутюнян Н. Д. К вопросу взаимосвязи креативности с личностными характеристиками // Ананьевские чтения, 2007: Материалы научно-практической конференции. СПб., 2007. С. 598–599.

5. Алейников А.Г. О креативной педагогике / А.Г. Алейников // Вестник высшей школы. - 2009. - №12. - С. 29-34.

11- Mavzu: Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlovchi shakl, metod va vositalar

Reja:

1. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlovchi shakl, metod va vositalar.

2. Bo‘lajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.

3. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar.

4. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish.

Tayanch tushunchalar: kreativlik sifatleri, kreativlik sifatlariga egalikni niqlash, shakl, metod, vosita, kreativlik sifatlarini rivojlantirish, axborot texnologiyalari.

Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish,

bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi.

Shuningdek shaxsda stenik tuyg‘ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hissi, ixtirolar jarayonida qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g‘ururlanish, biror narsa o‘ylab topish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyasizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil bo‘ladi. Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta’minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, aloqador) tafakkurning kombinasiyasi zarur deb hisoblaydilar. tafakkur xususiyatlarining bunday kombinasiyasi natijasi ongning

ravonligi va moslashuvchanligi, shuningdek, o'ziga xoslik, hukmning aniqligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi

Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyatini oshirishga, ijodiy faolligini oshirishga yordam beradigan o'qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ushbu texnologiyalar shaxsning o'zini o'zi qadrlashni shakllantirishga, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni oshirishga va voqelik bilan adekvat aloqada bo'lishga to'sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklarni rivojlanishiga yordam beradi.

Xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi amaliyotida shaxs kreativlik sifatlarida shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'plab metod va strategiyalar qo'llaniladi. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talaba va o'quvchilarni o'quv materiallari yuzasidan chuqur o'ylashga majbur qiladi. Shu sababli bu metod va strategiyalarni kreativlik sifatleri nihoyatda past rivojlangan o'quvchi va talabalar bilan ishlash jarayonida samarali qo'llab bo'lmaydi.

Kreativ shaxslar ikki toifaga bo'linadi:

1.Katta kreativlar ("katta K"). Ular o'zlari faoliyat olib borayotgan sohaning yetakchilari bo'lib, sohada doimo o'zgarishlarni sodir etishga intiladi.

2.Kichik kreativlar ("kichik K"). Ular o'zlarining kreativlik sifatlaridan faqatgina kundalik hayotda muayyan foydaga erishish uchun foydalanadi.

Aksariyat talabalar o'zlarini kreativ shaxs emas, deb hisoblaydi. Ularning nazarlarida kreativlik go'yoki ular yetisha olmaydigan orzu va u faqat iqtidorli shaxslardagina namoyon bo'ladi. Bunday fikrga ega talabalar kreativlik sifatlariga egalik o'z sohasining yetakchilari (ya'ni "katta K" toifasiga kiruvchi shaxslar), san'at sohasida tahsil olayotgan yoki faoliyat yuritayotgan talabalarda bo'lishiga ishonadilar. Talabalar qachonki kreativ shaxs bo'lish uchun o'z sohasining yetakchisigina bo'lish shart emasligi tushunsalar, o'zlarida kreativlik sifatlarini samarali shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Shundagina ular o'zlarini past

baholashga barham berib, yangi, ilg'or g'oyalar bilan o'zlarini amoyon etishlari, ta'lim jarayoni kun sayin faollik ko'rsatishga muvaffaq bo'ladilar, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlari ortadi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari yanada yaxshilanadi. O'zlarini baland baholay boshlab, kreativ sifatlarni namoyon etish borasida mavjud ko'rsatkichlardan ko'ra yuqori natijalarga erishishga intiladilar.

Amaliyotning ko'rsatishicha, talabalar qancha ko'p kreativlik sifatlarini namoyon etsalar, shuncha ko'p faollikka erishadilar. Kreativ xarakterga ega mashg'ulotlar talabalarning qiziqishlarini kuchaytirib, ular yanada ko'proq harakat qilishga undaydi.

Duek tomonidan e'tirof etilishicha, talabalar amaliy harakat va faollik jiddiy o'zgarishlarga olib kelmasligiga ishonishdek salbiy tushunchalarga ega. Ular o'zlarining muayyan imkoniyatlarga egaliklarini biladilar, biroq, mavjud imkoniyatlari hech narsani o'zgartirmaydi deb hisoblaydi. Shu sababli ular o'zlarining faollik darajasini erishayotgan yutuqlari bilan emas, aksincha, doimo muvaffaqiyatsizliklari bilan baholashga odatlanib qolishadi. Bu esa nihoyatda xavfi. O'zlarini yuqori baholaydigan talabalar esa mavjud ko'nikma, malaka va iqtidorlari yanada rivojlanib borishiga ishonadilar.

Bunday talabalar odatda murakkab ishlarda faol qatnashadilar va o'zlarini namoyon eta oladilar ham. Xato qilsalar undan xulosa chiqarib, o'sishda davom etadilar. Bunday fikrlash odatiga ega o'quvchilar kirishimlir oq va kreativlik ko'nikmasidan foydalanishga moyil bo'ladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar bugungi kunda iqtidorli bolalarni aniqlash borasida katta tajribalarga ega. Ta'lim tizimida iqtidorli bolalarni aniqlash va ularga ta'lim berishga oid ko'plab metodikalar mavjud. Quyida ularning ayrimlari to'g'risida to'xtalib o'tiladi:

Slosson testi. Katta yoshlilar hamda bolalarning aqliy qobiliyatini o'lchashga xizmat qiladi. Berilayotgan barcha testlarga javoblar og'zaki tarzda olinadi. Kichik yoshli bolalarga

berilayotgan topshiriqlarning ayrimlari bolalar tomonidan ayrim harakatlar (masalan, qog‘oz, qalam yoki ruchkalardan foydalanish)ning bajarilishiga o‘ddir. Test aqliy qobiliyat darajasining o‘rganilayotgan sifatlarga nisbati tarzida aniqlanadi. Bu o‘rinda yuqori natija 120 va undan ortiq ko‘rsatkich sanaladi.

Vekslerov shkalasi. Vekslerov shkalasi (“PPSI” testi) aqliy qobiliyatni aniqlashga imkon beruvchi individual test hisoblanadi. U ikki qismdan iborat:

1) og‘zaki shkala (ma‘lum materialni o‘zlashtirish, uning mazmunini tushunish, arifmetik topshiriqlarni bajarish, o‘zaro o‘xshashliklarni topish, lug‘at boyligiga egalikni namoyish etish kabi beshta ko‘rsatkich bo‘yicha baholanadi);

2) harakat shkalasi (kubiklardan konstruksiyalar yaratish, labirintlarni topish, chizilayotgan surat (kartinalar)ni yakuniga yetkazi sh, tavsiya etilayotgan kod (tasvir)lar mohiyatini ochib berish (“Hayvonlarning uylari” mavzusi bo‘yicha) kabi beshta holat ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi.

Torrens (I) testi¹¹. Torrens (I) testi yozma shaklda bo‘lib, tafakkurning quyidagi sifatlarini aniqlashga yordam beradi:

tezkorlik;

aniqlik;

tasavvurning boyligi va o‘ziga xosligi.

Test noto‘g‘ri shaklda yoritilgan surat (kartina)ni to‘g‘ri shaklda ifoda etishga asoslanadi. Bunda boladan juda yorqin ranglarda noto‘g‘ri tasvirlangan kartinani alohida qog‘ozga to‘g‘ri shaklda qayta tasvirlay olish talab etiladi. Torrens (II) testi¹².

Torrens (II) testi og‘zaki shakldagi test bo‘lib, bolalar va kattalarning ijodiy qobiliyatini og‘zaki usullar yordamida aniqlashga xizmat qiladi.

Test quyidagi tavsifga ega:

savollarni bera olish malakasiga egalik;

surat (kartina)lar majmuida tasvirlangan vaziyatlarga mos keluvchi holatlarning sabab va oqibatlarini aniqlay olish;

kundalik hayotda eng oddiy va ommaviy predmetlarni

qo'llashning o'ziga xos usullarini taklif eta olish;

-barcha uchun yaxshi tanish bo'lgan predmetlar bo'yicha kutilmagan savollarni bera olish;

-taxminlarni ilgari sura olish.

Pedagogik manbalarda ilgari surilgan g'oyalarga tayangan holda pedagog ega bo'lgan kreativ tafakkur darajasini quyidagi metodlar¹³ yordamida baholash mumkin:

-ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi shaxsi va faoliyatini bevosita o'rganish metodlari (pedagogik kuzatish, o'qituvchining ish hujjatlari va rejalarini o'rganish, suhbat va h.k.);

-pedagogik tafakkurni tashxislashga yordam beruvchi maxsus metodlar (tashxisli vaziyatlar, anketa, reyting, test va b.)

Ushbu metodlar yordamida oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik bilimlari darajasini ham baholash mumkin. Faqat bu o'rinda o'qituvchining ish hujjatlari, rejalarini o'rganish emas, balki talabalarning individual, mustaqil ta'lim olishlari va ularning natijalarini tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

12- mavzu: Kreativ yondashuv asosida o'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratish

Reja:

1. O'quv materialini o'zlashtirish bosqichida ta'lim mazmuni
2. Kreativlik o'quv-bilish faolligi sifatida
3. Shaxsda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish

Bir qarashda ta'lim jarayonini kreativ g'oyalar asosida tashkil etish o'quv dasturida belgilangan talablardan chetga chiqishdan tasavvur qoldiradi. Biroq, kreativlik, ijodiy yondashish o'quv mashg'ulotlarini mavjud DTSga moslashtiradi. Qolaversa, o'qituvchilardan o'qitish jarayoniga nisbatan kreativ, ijodiy yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladigan metod, usul va vositalar mashg'ulotlarni metodik jihatdan samarali, to'g'ri olib borilishini ta'minlaydi.

O'quv materialini o'zlashtirish bosqichida ta'lim mazmunining o'quv modul (fan)lari bo'yicha yaratilgan DTS, o'quv rejasi va o'quv dasturi kabi me'yoriy hujjatlar, shuningdek, o'quv manbalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanma, yo'riqnoma, tavsianoma va kabilar)da aks etishi ta'minlanadi. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalarini mazmunida namoyon bo'ladi. Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyati va samaradorligini belgilovchi mezonlar sanaladi.

Pedagoglarda ham kreativlik sifatlarining to'laqonli namoyon bo'lishi o'quv dasturlari bilan ishlashda ham ko'zga tashlanadi. O'quv dasturlari orasida mualliflik o'quv dasturlari pedagogning kreativlik sifatleri, kasbiy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan ijodiy yondashuvi, ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirish yo'lida tashkil etayotgan kasbiy -ijodiy faoliyati mazmunini o'zida to'laqonli ifoda eta oladigan ta'limiy

xarakterdagi dasturdir. Bu turdagi dasturlarlar ham davlat ta'lim standartlari talablarini hisobga olgan holda o'quv fani qurilishining o'zgacha shaklda bo'lishi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan muallif nuqtai nazarining aks e tishi bilan boshqa o'quv dasturlar idan farqlanadi. Bu turdagi dasturlar tegishli fan sohasi bo'yicha faoliyat olib borayotgan pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi taqrizlariga ega bo'lishi va ta'lim muassasalarining Pedagogik kengashlari tomonidan tasdiqlanishi zarur. Mualliflik o'quv dasturlarini ishlab chiqishda pedagog erkin, mustaqil ravisha o'zining kreativlik layoqatini to'la namoyon etish imkoniyatiga ega. Odatda mualliflik o'quv dasturlaridan talabalarning erkin tanlovi bo'yicha (majburiy yoki maxsus) kurslar tashkil etishda, to'garaklar, ilmiy jamiyatlar, "Fan klublari", texnik va badiiy ijodiyot markazlari faoliyatida samarali qo'llaniladi.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabi yotlari da loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o'quv qo'llanmalari kiradi. O'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan barcha akademik litsey va kasbhunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari (universitet, akademiya)lar uchun tavsiya etiladi. G'oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lgan darslik ta'lim mazmuniga aqo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, talabalarning ehtiyojlarini qondira olishi, qiziqishini oshirishi, bilim, ko'nikma va malakalarini boyitishi zarur.

Darslikda bayon etilayotgan o'quv axborotlari lo'nda, tushunarli va vizual bo'lishi, talabalarning estetik ehtiyojlariga mos kelishi kerak.

Ta'lim mazmuni o'quv materiali darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, ma'lumot nomal ar, matematika, fizika, ximiya bo'yicha masalalar to'plamlari, georafiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va b.da ochib beriladi. O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi

va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo'ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish). **“Kreativlik o'quv-bilish faolligi sifatida** ham tahlil etilishi mumkin. Binobarin, ba'zi o'quvchilar tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlashni, boshqalar esa aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishni afzal ko'radi, uchinchi guruh vakillari esa tabiatan kreativ va tanqidiy fikrlashga moyil bo'ladi. Shunga asoslangan holda o'qituvchilar har bir talabaning qiziqishi, qobiliyati, moyilligi, shuningdek, ularning o'quv-bilish uslubidan kelib chiqqan holda” (Tomlinson, 1999) ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, o'quv manbalarini shakllantirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ya olishlari kerak.

Ta'lim jarayoni dagi kreativlik talabalarda o'qishga qiziqishlarini orttiruvchi kreativ savollar tuzish, turli rasm, tasvir, jadval, diagramma, ramziy ifodalardan foydalanish, ta'lim oluvchilarga bayon etilayotgan o'quv axborotlari bilan mutlaqo aloqasi bo'lmagan g'oyalarni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlilikni topish kabi vazifalarni berish, kichik kichik guruhlarda ishlashlarini ta'minlash kabi harakatlarda aks etadi.

Shaxsda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish talab etiladi. Ken Robinson (2011 y.) ta'kidlaganidek, kreativlik talabalarda “nafaqat yangi g'oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o'quv masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko'nikmalarini ham shakllantira olishi lozim. Kreativlik jarayoni boshlang'ich g'oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo'lsa ulardan voz kechishni ham o'z ichiga oladi. O'qituvchilar, shuningde, ta'lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashishda nafaqat o'quv fanlarini o'zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda ijobiy holatlarni qayd etayotgan talabalarga, balki ko'proq e'tiborni talab etadigan, ijodiy, kreativ fikrlash layoqatiga ega bo'lmagan ta'lim oluvchilarga ham birdek e'tiborni qaratishlari zarur.

Demak, pedagoglarning o'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlari talabalarning umumiy

rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati pedagog tomonidan taqdim etilayotgan o'quv materiallarining qay darajada sifatli tayyorlanishiga ham bog'liq. Shu sababli pedagoglar o'quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashishlari talab e tiladi. Bunda ular o'quv materiallarini samarali shakllantirishda g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, talabalarning yosh xususiyatiga mosligi , amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyillarni inobatga olishi o'quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagoglarda kreativlik sifatlarining to'laqonli namoyon bo'lishi nimalarda ko'zga tashlanadi
2. Mualliflik o'quv dasturlarini ishlab chiqishda pedagog erkin, mustaqil ravishda o'zining kreativlik layoqatini to'la namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladimi
3. Shaxsda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor qaratishimiz kerak

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD,2014.
2. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. Mual.: .X.Toxtaxodjaeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: "Iqtisod-moiya", 2010. – 136-140-b.
3. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 b.a

13-Mavzu: O‘quv mashg‘ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo‘yiladigan zamonaviy talablar

Reja:

1. Shaxsda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish
2. Ta‘lim jarayonini tashkil etishda o‘quv materiallarining maqsadga muvofiq, g‘oyaviy mazmunga ega va sifatli tayyorlanishi
3. Didaktik materiallarning turlari

Shaxsda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish talab etiladi. O‘quv materiallarini talabalarga taqdim etishda savolning “Agarda ...?” deb qo‘yilishi topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning ham ob'ektiv, ham sub'ektiv fikrlash ko‘nikmalarini samarali o‘zlashtirishlarini ta‘minlaydi. Ken Robinson ta‘kidlaganidek, kreativlik talabalarda “nafaqat yangi g‘oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o‘quv masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko‘nikmalarini ham shakllantira olishi lozim. Kreativlik jarayoni boshlang‘ich g‘oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo‘lsa ulardan voz kechishni ham o‘z ichiga oladi. Ayni o‘rinda shuni ham aytib o‘tish joizki, ta‘lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv ta‘lim olish, o‘quv fanlari asoslarini o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishi susaygan talabalar bilan ishlash maqsadida emas, balki barcha talabalar bilan jonli, qiziqarli, jo‘shqin muloqotga kirishish, ularni faollikka undash uchun qo‘llaniladi.

Qolaversa, kreativ xarakterga ega mashg‘ulotlarni nafaqat san‘at, madaniyat sohalarida yo‘nalishlarida, shu bilan birga barcha istalgan soha (biznes, iqtisodiyot, huquq, pedagogika, psixologiya, qurilish, qishloq xo‘jaligi, muhandislik, sanoat va b. sohalar) bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalar bilan ishlash jarayonida ham birdek samarali tashkil etish mumkin. O‘qituvchilar, shuningdek, ta‘lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashishda nafaqat o‘quv

fanlarini o'zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda ijobiy holatlarni qayd etayotgan talabalarga, balki ko'proq e'tiborni talab etadigan, ijodiy, kreativ fikrlash layoqatiga ega bo'lmagan ta'lim oluvchilarga ham birdek e'tiborni qaratishlari zarur. Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv materiallarining maqsadga muvofiq, g'oyaviy mazmunga ega va sifatli tayyorlanishi muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlari uchun ikki turdagi didaktik materiallar tayyorlanadi.

Didaktik materiallarning turlari

t/r	Didaktik materiallarning turlari
1	O'quv materiallari mohiyatini yorituvchi o'quv axborotlari majmui (og'zaki bayon etiladigan va vizual namoyish etiladigan ma'lumotlar)
2	O'quv topshiriqlari mazmunini yorituvchi didaktik materiallar (og'zaki va yozma xarakterdagi o'quv topshiriqlari)
3	O'quv topshiriqlarining tezkor bajarilishini ta'minlovchi ish qog'ozlari

Pedagoglarning o'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko'rishlari kutilgan ta'limiy natijaning qo'lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi:

- aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi;
 - talabalarining ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;
 - o'quv axborotlarining asoslanganligi;
 - talabalarining o'quv-bilish faoliyatini
 - faollashtirish imkoniyatiga egalik;
- talabalarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlariga uchun sharoit yaratish;

- talabalarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va
- kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- zamonaviy ahamiyat kasb etishi;
- estetik jihatdan sifatli bo'lishi;

- noaniq tushuncha va iboralardan holi bo'lishi;
- aniq natijani kafolatlay olishi;
- turli vaziyatlarda qo'llay olish imkoniyatiga egalik;
- mavjud BKMni mustahkamlashga xizmat qilishi va b.

O'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o'quv manbalari (darslik, o'quv, metodik va o'quv-metodik qo'llanma, yo'riqnoma, tavsiyanoma, lug'at, ensiklopediya, atlas, ish daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma'lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari mumkin. Bu o'rinda olingan ma'lumotlarning ishonchliligi muhim. Shu sababli pedagoglar didaktik materiallarni tayyorlashda o'quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e'tiborni qaratishlari zarur. Binobarin, ilmiy asosga ega dalillar bilan boyitilgan didaktik materiallar talabalarning umumiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Demak, pedagoglarning o'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlari talabalarning umumiy rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati pedagog tomonidan taqdim etilayotgan o'quv materiallarining qay darajada sifatli tayyorlanishiga ham bog'liq. Shu sababli pedagoglar o'quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashishlari talab etiladi.

Bunda ular o'quv materiallarini samarali shakllantirishda g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, talabalarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyillarni inobatga olishi o'quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. moyillarni inobatga olishlari zarur. O'quv mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashda ham pedagoglar zamonaviy talablar.

14-Mavzu: Kreativ ko‘nikmalar va bo‘lajak pedagoglarda kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonining mohiyati

Reja:

1. Kreativ ko‘nikmalar va bo‘lajak pedagoglarda kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish
2. Bugunning zamonaviy o‘qituvchisi
3. O‘qituvchi uchun "7 sifat" metodi
4. Kreativ pedagogning oltin xususiyatlari

1. Qiziqishni rag‘batlantirish: bo‘lajak pedagoglar o‘zlarida va o‘quvchilarida qiziquvchanlik va hayrat tuyg‘usini tarbiyalashlari kerak. Ular savol-javob, izlanish va yangi bilim va g‘oyalarni izlash istagini kuchaytirishlari kerak.

2. Muammo yechish qobiliyatlarini rivojlantirish: Ijodiy ko‘nikmalar tanqidiy fikrlash va murakkab muammolarga yechim topish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak pedagoglar o‘quvchilarga ijodiy fikrlashni va o‘ziga xos yechim topishni talab qiladigan ochiq vazifalarni bajarish imkoniyatini yaratishi kerak.

3. Tasavvurni tarbiyalash: Tasavvur ijodkorlikning asosidir. Kelajakdagi pedagoglar talabalarni tasavvur qilish, orzu qilish va an'anaviydan tashqari imkoniyatlarni tasavvur qilishga undashlari kerak. Ijodkorlikni rag‘batlantirish uchun ular hikoya qilish, rol o‘ynash va xayoliy faoliyatni o‘qitishga qo‘shishlari mumkin.

4. Moslashuvchanlik va moslashuvchanlikni rivojlantirish: Ijodiy qobiliyatlar moslashuvchan va turli vaziyatlar va nuqtai nazarlarga moslashishni o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak pedagoglar o‘quvchilar tavakkal qilish va yangi g‘oyalarni o‘rganish uchun qulay his qiladigan inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi sinf muhitini yaratishi kerak.

5. Hamkorlik va muloqotni rivojlantirish: Ijodkorlik ko‘pincha hamkorlikda rivojlanadi. Bo‘lajak pedagoglar o‘quvchilarni hamkorlikda ishlashga, fikr almashishga, mazmunli

munozaralar olib borishga undashlari kerak. Shuningdek, ular ijodiy fikr va g'oyalarni ifodalash va ifodalash uchun og'zaki va og'zaki bo'lmagan samarali muloqot qobiliyatlarini ta'kidlashlari kerak.

6. Ijodiy ifoda etish imkoniyatlarini ta'minlash: bo'lajak pedagoglar o'quvchilarga o'z ijodlarini ifoda etishlari uchun san'at, musiqa, yozuv, drama va texnologiya kabi turli vositalarni taklif qilishlari kerak. Ular o'quvchilar tajriba o'tkazishi, xato qilishlari va ulardan saboq olishlari mumkin bo'lgan xavfsiz joy yaratishi kerak.

7. Mulohaza va fikr-mulohazalarga urg'u berish: Mulohaza ijodiy jarayonning ajralmas qismidir. Bo'lajak pedagoglar o'quvchilarning ijodiy ishlari haqida fikr yuritish, konstruktiv fikr bildirish va o'z-o'zini baholashni rag'batlantirishga yo'l ko'rsatishi kerak. Bu o'quvchilarning o'sish tafakkurini rivojlantirishga va ijodiy qobiliyatlarini doimiy ravishda oshirishga yordam beradi.

Bo'lajak pedagoglar ushbu jihatlariga e'tibor qaratish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va ijodkorligini tarbiyalashi va oshirishi, ularni yangilik va o'ziga xoslikni talab qiladigan kelajakka tayyorlashi mumkin.

Bugunning zamonaviy o'qituvchisi o'quvchilarga samarali ta'lim berishda, avvalo, ularning yoshini hisobga olishi, eng yuqori darajada ta'lim berish uchun esa quyidagi 6 ta foydali maslahatga amal qilishi lozim:

1. O'quvchilar bilan do'stona aloqa o'rnatish. O'quvchilar siz ular uchun alohida g'amxo'rlik qilayotganingizni bilishsin. Ular bilan har tomonlama aloqani mustahkamlang. Birortasi nazaringizdan chetda qolmasin. Har birining fikr-mulohazalarini eshitishga va qadrlashga, o'z o'rnida ularga ijobiy baho berishga odatlaning.

2. Bilim berishda ijobiy muhit yarating. Unutmang, o'quvchilar doimo ijobiy muhitda bilim olishga oshiqishadi. Shuning uchun ularga tengdoshlari bilan ishlay oladigan muhit

yaratishga harakat qiling. Har bir o‘quvchining javobini tinglab, bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiring.

3. Darsda turli yondashuvlardan foydalaning. Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, yoshi kichik o‘quvchilar bir vaqtda atigi 10-15 daqiqagina diqqatlarini jamlay olishar ekan. Shuning uchun bitta mashg‘ulotni 15 daqiqadan oshirib yubormang. Darslarning o‘yin, musobaqa tarzida noan’anaviyligini oshiring. Yetakchi o‘zingiz bo‘ling. Shunda sinf boshqaruvida muammolarga duch kelmaysiz.

4. O‘quvchilarni ko‘proq harakat qildiring. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda energiya ko‘p bo‘ladi. Buni bosib turishdan ko‘ra, undan foydalanishning pozitiv yo‘llarini toping. Darsda qiziqarli va interfaol usullardan foydalanib o‘quvchilarning ko‘proq jismoniy va aqliy qobiliyatini oshiring.

5. Guruhlarga bo‘lib qo‘ying. Guruhlarga bo‘lishning afzalligi shundaki, bunda bilmasvoylar bilimdonlardan ko‘proq bilim olishga intilishadi. Tortinchoqlikka barham beriladi. Hamjihatlik kuchayadi va har bir bola ortda qolmaslikka intiladi.

6. Tartib-intizomni saqlashda qo‘l ishorasidan foydalaning. Sinfni boshqarish yosh o‘quvchilar bilan ishlaydigan o‘qituvchilar uchun asosiy muammolardan biri sanaladi. Siz izchil bo‘lishingiz kerak. Muammolarni hal qilish uchun darsingizni bo‘lishga odatlanmang. Salbiy xulq-atvorlarni bartaraf etishning eng yaxshi usullaridan biri qo‘l bilan ishora qilishdir. O‘quvchilaringizga dars avvalida har bir qo‘l ishorasi nimani anglatishini bildirib qo‘ysangiz, bas.

O‘qituvchi uchun "7 sifat" metodi

1. Maktabga xursandchilik bilan kirib boring, maktabdan yoqimli charchoq bilan chiqib keting.

2. Tabbasum qilishni unutmang.

3. Yodingizda tuting: e’tiborsiz shifokor bemorning badaniga shikast yetkazishi mumkin, e’tiborsiz o‘qituvchi esa - bolaning qalbiga.

4.Darsga kirishdan oldin hozir nima uchun bu yerda ekanligingizni va nima qilishingizni aniq biling.

5.Eng oliy pedagogik muvaffaqiyat — o‘quvchilarning tabbasumi.

6.Agar oddiy faktni katta kashfiyot kabi taqdim eta olsangiz va o‘quvchilaringizni hayratlantira olsangiz, asosiy vazifangiz bajarildi deb hisoblashingiz mumkin.

7.Agar mashg‘ulotingizga mehmonlar tashrif buyurgan bo‘lsa, o‘zingizni mamlakatning eng qobiliyatli pedagogi va eng zo‘r aktrisasi (aktyori) kabi tuting.

Kreativ pedagogning oltin xususiyatlari

1.Yaxshi kommunikator bo‘ling Muloqotda ular yetarli ritmdan foydalanishlari kerak. Ovoz ohangiga, maromiga va so‘z boyligi jihatidan jamoatchilikka moslashtirilgan holda ideal nutqni o‘tkazish, e‘tiborga olish kerak bo‘lgan eng maqbul omillardandir. Bunga o‘quvchilar diqqatini doimiy ravishda saqlashlari kerak bo‘lgan darslarni misol qilib keltirish mumkin. Yaxshi muloqotdan foydalanish imkoniyati talabanning diqqatini turli xil urish va ovoz balandligini pasaytirish orqali rag‘batlantiradi.

2.Siz beradigan narsalar ustidan nazoratni saqlang Talabalar o‘qituvchi o‘zi aytayotgan mavzuning yuz foizini nazorat qilmasligini anglashi, talabalarning aloqani uzib qo‘yishi va vaziyatda o‘zlariga ishonchsizligini anglatadi.

3.O‘quvchilarda muvaffaqiyatni rag‘batlantirish Muvaffaqiyatli vaziyatlarni ko‘rsatish talabani oldinga siljishga undaydi. Bunga ba’zi talabalar tomonidan Jismoniy tarbiya mavzusiga nisbatan ishonchsizlik keltirilgan. Agar ular muvaffaqiyatli vaziyatlarga duch kelmagan bo‘lsalar, ular unga ishonmaydilar, evolyutsiyani ko‘rmaganlar va shuning uchun ular qiziqish bildirmaydilar.

Nazorat savollari:

1. Bugunning zamonaviy o'qituvchisi o'quvchilarga samarali ta'lim berishda qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak
2. O'qituvchi uchun "7 sifat" metodi haqida ma'lumot bering
3. Kreativ pedagogning oltin xususiyatlarini izohlang

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kreativ pedagoglar uchun tuzib chiqilgan eng sara Maslahatlar va qo'shimcha metodlar to'plami – t.: 2022 – 25.b

15- Mavzu: Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish va undan foydalanishning samarali yo‘llari

Reja:

1. Kreativ fikrlash
2. Kreativ fikrlash jarayonining mohiyati
3. Kreativlik sifatлари, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar
4. O‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lish mezonlari:

Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo...) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamli, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta‘sirchan ifodalashga qaratilgan g‘oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Bo‘ljak pedagoglarda kreativlikni odatga aylantirish orqaliginakreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi vakreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsan siz nima deb o‘ylaysiz: Bo‘ljak pedagoglarni kreativ fikrlashga undash jarayonida mazkur yo‘llardan qay tartibda foydalanish kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Bu o‘rinda Patti Drapeau quyidagi maslahatni beradi: “Bir manzildan ikkinchi manzilga borish uchun biz ikki va undan ko‘p yo‘nalishlarni bosib o‘tamiz. Bu fikr quyida biliriladigan ko‘rsatmalarga ham taalluqlidir.

O‘qituvchi dars jarayonida bir yoki bir nechta (yuqorida keltirigan) yo‘llardan foydalanishi mumkin. O‘qituvchi kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi fe‘llarni (1-yo‘l) qo‘llashga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish (3-yo‘l) ustida ish olib borayotgan. Bo‘ljak pedagoglarni kreativ

fikrlash strategiyalari (2-yo‘l)dan foydalanishga ham samarali jalb etadi. Dars esa kreativ mahsulotni (4-yo‘l) ishlab chiqish bilan yakunlanadi.

Kreativ fikrlash jarayonini mohiyatini yorituvchi xarita o‘qituvchilarga dars jarayonida namoyon bo‘ladigan kreativlik darajasi, turini aniqlashga yordam beradi.

Ko‘p holatlarda o‘qituvchilar hamda bo‘lajak pedagoglarning o‘zlari hamshunday savolga duch kelishadi: kreativ fikrlash jarayonining odat ifatida namoyon bo‘lishiga erishish mumkinmi? Bu o‘rinda Patti Drapeau shunay fikrlarni ilgari suradi: “Miya tadqiqotlari kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish usullari va uni qanday qilib odatga aylantirish mumkinligini tushunish imkonini beradi.

Kreativlik miyaning old (g‘oyalar yuzaga keladigan) va chekka (tahlil qilish) sohalarining o‘zaro muvofiqlikda ishlashi va dopamin(kishining o‘zini yaxshi his etishiga yordam beruvchi) moddasining ishlab chiqarilishi natijasida ro‘y beradi.

Ta‘lim olish miyada kichik burmalarining paydo bo‘lishiga olib keladi hamda miyaning faol ishlashi natijasida bu jarayon kuchayadi.

Inson miyasi obraz, bashorat, xis tuyg‘u, emotsiya va ma’no boy ma’lumotlar olishni ma’qul ko‘radi.

“Agarda ma’lumot hech qanay hissiyot va fikriy jarayonlardan holi bo‘lsa, u miyada saqlanmaydi”. Biroq, kreativ fikrlash miyada uning “ta‘lim olish va o‘rganish metodlariga zid bo‘lgan yangi usullarni qo‘llash va noan‘anaviy, original g‘oyalarning ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Kreativ fikrlash ko‘nikmasini mashq qildirish natijasida bo‘lajak pedagoglar faqatgina o‘rnatilgan aloqalarga tayanibgina qolmay, balki miyada yangi, ma’noga boy aloqalarni o‘rnatish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil bo‘ladilar. Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega bo‘ladi. Inson miyasi doimo to‘g‘ri ishlashga odatlangan, ya’ni,

miya uchun faqat birgina to'g'ri javob mavjud bo'ladi.

Vaholanki, bu kreativlik emas. Kreativlik – bo'lajak pedagoglarning o'z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to'g'ri bo'lishi mumkindegani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun bo'lajak pedagoglar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim.

Bo'lajak pedagoglar kreativlik rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va bo'lajak pedagoglar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o'rganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqish, haddan tashqari baxolarga e'tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamsitilishdan qo'rqish xissi mavjud bo'lajak pedagoglarda kreativlik odatga aylanmaydi. Kreativlikni odatga aylantirish, bo'lajak pedagoglarning o'qishdagi muvaffaqiyat va o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni oshirish faqatgina kreativ fikrlashni muvofiq ravishda qo'llash orqali va sog'lom muhitdagina erishish mumkin”

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o'qituvchining kreativligi boshqa (talaba) larni ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi. “Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga egadir; kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim.

Har qanday konikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo'lajak pedagoglarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, bo'lajak pedagoglarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari bo'lajak pedagoglarda

kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak pedagoglarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi.

Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchi alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda o'qituvchining roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Pannels va Klakstonlar qayd etganlaridek, muhit kreativlikni shakllantirishga ta'sir etadi, boshqa tadqiqotchi Piirtoning fikricha esa, kreativlik tavakkal qilishni talab etadi. Vaholanki, o'qituvchi sinfd bo'lajak pedagoglar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Bo'lajak pedagoglar kreativlik sinf xonasida o'z g'oya va fikrlarini turli yo'llar bilan ifoda etishlari mumkin va ular buni qadrlamoqlari lozim. Bo'lajak pedagoglar miyada yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak.

O'qituvchi bo'lajak pedagoglardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchining bo'lajak pedagoglar berayotgan kreativ g'oyalariга nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o'qituvchi-talaba munosabatining muhim qismi bo'lib, bo'lajak pedagoglar muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Muayyan omillar pedagoglarda **kreativlik sifatleri, malakalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.** Shu sababli pedagogik jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo‘lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash

Kreativ muhitda o‘qituvchi bo‘lajak pedagoglar diqqat-e’tiborini jalbetish maqsadida biror bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uyg‘otuvchi ma’lumot, bo‘lajak pedagoglarni o‘ziga jalb etib, ularda o‘qishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi.

Olib borilgan miya taqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, yangilik hamisha miyani faollashtiradi. O‘qituvchi bo‘lajak pedagoglarni yangi ma’lumot va manbalar bilan ta’minlaganda yoki yangi strategiyalarni qo‘llaganda, miya “uyg‘onadi” va e’tibor qaratadi. Masalan, biror bir adabiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxsga o‘xshab kiyinish, tarixiy buyum yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, sinf xonasidagi jihozlar o‘rnini almashtirish, o‘yinlar o‘ynash (bu o‘rta maktab o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak pedagoglariga ham birdek taalluqli), dars shaklini o‘zgartirish. Kreativ muhitda o‘qituvchi bo‘lajak pedagoglarga tez-tez tanlash imkonini beradi.

Tanlov kreativlikni shakllantirishda muhimdir, bo‘lajak pedagoglarni ruhlantirib, ularga o‘qishni nazorat qilish imkonini beribgina qolmay, balki huquq va imkoniyatlarini kengaytiradi. Tanlov huquqi nafaqat o‘qituvchi-talaba munosabatini yaxshilash, balki har ikki tarafning ham individualligini ifodalashga zamin yaratadi. Tanlov huquqi faqat bir tomonlama bo‘lishi ham mumkin, ya’ni tanlov talaba tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi va yakuniy natija ikki yoki undan ko‘p shaklda taqdim etilishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida ham o‘qituvchilar bo‘lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa bo‘lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart-sharoitni yaratib bera olishlari zarur. Zero, katta va kichik guruhlarda ishlash jarayonida bildirilgan har qanday fikrni kreativ jihatdan rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. “O‘qituvchi kreativlik darslarida

jamoatuygʻusining ahamiyatini angalagan holda, doimiy ravishda guruhlarni oʻzgartirib, boʻlajak pedagoglarda jamoat boʻlib ishlash, boshqalar qobiliyati va mahoratini hurmat qilish koʻnikmasi shakllantiradi. Vaholanki, yakka tartibda ishlash maʼlum vaziyatlarda samara bersa, kreativlik darstarida kichik guruhlarda ishlash maqsadga muvofiqdir, chunki kreativlik koʻnikmasi ijtimoiy fenomendir;

Soyerning fikriga koʻra, kreativ qarashlar jamoat boʻlib ishlash jarayonida va kreativ hamkorlik natijasida shakllanadi.

Zamonaviy taʼlim tizimida oʻqituvchi faoliyatining ustuvor yoʻnalishi. muloqotning dialogik usullariga, yechimni birgalikda izlashga va turli ijodiy faoliyatga beriladi. Bularning barchasi oʻqitishning interfaol usullarini qoʻllash orqali amalga oshiriladi. Interfaol taʼlim jarayonida oʻquvchilar tanqidiy fikrlashni, vaziyat va tegishli maʼlumotlarni tahlil qilish asosida murakkab masalalarni yechishni, muqobil fikrlarni topishni, puxta oʻylangan qarorlar qabul qilishni, muhokamalarda qatnashishni oʻrganadilar. Buning uchun darslar juftlik va guruh usullari asosida tashkil etiladi, ilmiy-tadqiqot loyihalari, rolli oʻyinlar qoʻllaniladi.

Oʻquvchilarni kichik guruhlarga boʻlish mezonlari:

- Boʻlajak pedagoglarni maʼlum sohadagi qobiliyatlariga koʻra kichik guruhlarga boʻlish; Boʻlajak pedagoglarni bunday qobiliyatiga koʻra boʻlish aslo kreativ fikrlash koʻnikmasiga bogʻliq boʻlmasligi lozim. Bunday guruhlarda Boʻlajak pedagoglar erkin harakat qila olishlari va vaqti kelsa boshqa guruhga oʻtishga tayyor boʻlishlari lozim;

- **hamkorlik guruhlari** boʻlajak pedagoglarning qiziqishlari asosida tashkil etiladi; bunday guruhlar turli bilim va qobiliyat darajasiga ega boʻlajak pedagoglardan iborat boʻlishi ham mumkin. Koʻp hollarda bunday guruhdagi Boʻlajak pedagoglar maʼlum bir rol, yaʼni masʼuliyatni oʻz elklariga oladilar. Mazkur guruhni shakllantirishda asosiy eʼtibor talabaning kognitiv hohishistalariga emas, balki uning ilmiy va ijtimoiy bilimiga beriladi;

- **moslashuvchan guruhlar** bo'lajak pedagoglarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va hohish-istalari asosida tashki etiladi. Guruhning qiziqishlari o'zgarsa, shunga ko'ra uning a'zolari ham o'zgaradi. Bunday guruh Bo'lajak pedagoglarda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantiradi. O'qituvchi bo'lajak pedagoglar muvafaqqiyatga erishishlari uchun ularni qiziqarli, murakkab vazifalar va aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlaydi. Ma'lum vazifani bajarish jarayonida bo'lajak pedagoglar ishga "berilib" ketishlari sababli ular vaqt tushunchasini unutib qo'yadilar.

Vaholanki, bo'lajak pedagoglar maktab sharoitida kamdan-kam bunday holatga tushsalar, o'qituvchilar bunday muhitni yaratishga intilishlari lozim. Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish

Bo'lajak pedagoglarni... - qiziqarli; - murakkab vazifalar; - aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash;

Bo'lajak pedagoglarga... - kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish; - bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish; - kreativ fikirlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish; - "qutqarib" qolish emas, balki yo'l yo'riq ko'rsatish;

Bo'lajak pedagoglarni... - suhbatlar orqali rag'batlantirish; - konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash; - yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib boorish;

Bo'lajak pedagoglar... - o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari; - guruhda ishlay olishlari; - hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikirlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish .

Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikirlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiy lashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni

shakllantirish va rivojlantirish,ularni ijodiy fikirlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Nazorat savollari:

1.Ma'ruza mashg'uloti uchun mo'ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi qanday ahamiyatga ega?

2.O'quv topshiriqlarining qanday turlari mavjud?

3.O'quv mashg'ulotlar uchun topshiriqlarni shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratiladi?

3.O'quv topshiriqlari uchun ish qog'ozlarini tayyorlash qanday didaktik ahamiyatga ega?

4.Kreativ yondashuv asosida o'quv fanlari bo'yicha nazorat-sinovtopshiriqlarini tayyorlashda qanday talablar inobatga olinadi?

5.Talabalarning o'quv faolligini oshirishda keys va darajali testlar to'plamini shakllantirishning ahamiyati qanday?

Mundarija

KIRISH	3
1-Mavzu: Kreativ pedagogika fan sifatida	5
2- Mavzu: Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish yo'llari	12
3-Mavzu: Pedagoglarda kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar ...	19
4-Mavzu: Didaktik ta'minotni yaratishda kreativ yondashuv	32
5-Mavzu: Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tasavvurni rivojlanishi va pedagogikada ilmiy ijodkorlik	43
6-Mavzu: Talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari	52
7-mavzu: Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlikni shakllantirish	63
8-Mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchining roli	68
9-Mavzu: O'qituvchining ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvi	73
10-Mavzu: Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	80
11- Mavzu: Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlovchi shakl, metod va vositalar	88
12- Mavzu: Kreativ yondashuv asosida o'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratish	93
13-Mavzu: O'quv mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar	97
14-Mavzu: Kreativ ko'nikmalar va bo'lajak pedagoglarda kreativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining mohiyati	100
15- Mavzu: Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish va undan foydalanishning samarali yo'llari	105

B.K. XAYRIDINOV

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA KREATIVLIK

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 22.02.2025 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “Times New Roman”
garniturası. Hisob-nashr tabog‘i. 7,125.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 50.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.
+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01